



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda Ha nocty

2023-yil
11-may
payshanba

№ 18 (4608)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan /

Web-site: www.postda.uz /

E-mail: info@postda.uz

ULAR DOIMO E'ZOZDA



Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Po'lat Bobojonov soha mutasaddilari ishtirokida Toshkent shahridagi bir nechta xonadonlarga tashrif buyurib, faxriylar bilan uchrashdi.

Mirobod tumani «Ming o'rik» mahallasida yashovchi Margarita Filanovich ayni vaqtda 86 yoshni qarshilagan. Ikkinchi jahon urushi vaqtida Leningrad qamalida qolgan Margarita yoshgina qizaloq edi. Urushning mash'um xotiralari uning murg'ak qalbiga muhrlangan. Margarita Ivanovnaga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tabriknomasi o'qib eshittirildi va maxsus sovg'alar topshirildi.

Ikkinchi jahon urushi faxriysi Pyotr Korzon oila a'zolari bilan birgalikda Mirobod tumanining Fitrat nomli mahallasida umrguzaronlik qilmoqda. Ichki ishlar vaziri faxriy xonadoniga tashrifi davomida Pyotr Konstantinovich bilan samimiy suhbatlashdi. Urush qatnashchilariga e'tibor va yaratilayotgan sharoitlar ularning salomatliklarini tiklashga xizmat qilayotganligi ta'kidlandi.

Urushning eng dahshatli manzaralariga guvoh bo'lgan Yelizaveta Ganiyeva konslagerdagi hodisalarni kinofilmlar orqali emas o'z xotiralari bilan eslaydi. Vazir bilan uchrashuvda Yelizaveta Vasilevna albatta bugungi tinch va farovon kunlarga yetib kelganidan baxtiyorligi, davlat rahbarining e'tiboridan minnatdor ekanligini bildirdi.

Faxriylar xonadonlariga tashriflar davomida Ichki ishlar vazirligi hamda Qorovul qo'shinlari orkestrlari tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar ularga yana bir bor g'alaba onlarini eslatdi.

Bu kabi tadbirlar respublika miqyosida o'tkazilmoqda va ularda hududiy ichki ishlar organlari rahbarlari ham ishtirok etmoqda.





Анжуман

Вазирлик Академиясида «Ички ишлар органларида маънавий-маърифий ишларни ташкил этиш концепциясининг ютуқлари ва истиқболлари» мавзусида II республика илмий-амалий анжумани бўлиб ўтди.



Жойлардаги ҳудудий ички ишлар органлари раҳбарлари ва шахсий таркиби билан видеоселектор тарзида ўтказилган ушбу анжуманда ҳамкор вазирлик ва идоралар раҳбарларининг маънавий-маърифий ишлар йўналишидаги ўринбосарлари ва масъул ходимлар, ички ишлар органлари соҳавий хизмат раҳбарлари, фахрийлар, ИИВ таълим муассасалари ўқувчи ва тингловчилари ҳамда оммавий ахборот воситалари вакиллари иштирок этишди.

Тадбир аввалида сўз олган Ички ишлар вазири ўринбосари, генерал-майор Азизбек Икрамов **2 йил** мобайнида тизимда кўплаб ижобий ишлар амалга оширилганлигини таъкидлаб, концепция том маънода соҳа ходимлари, фахрийлар ва таълим муассасалари ёшлари ўртасида «**маънавият занжири**»ни яратганлигини айтиб ўтди.

Чунончи, ички ишлар органларида **353 та** ватанпарварлик бурчаклари ташкил этилгани, тизимдаги **355 та** маънавият ва маърифат хоналари концепция талабларидан келиб чиқиб, модернизация қилингани, шунингдек, юртимиздаги **108 та** идора ва ташкилотлар билан яқин ҳамкорлик йўлга қўйилиб, меморандумлар имзолангани, улар билан икки йил давомида **23 минг 184 та** турли тадбирлар ташкил этилгани қайд этилди.

Бундан ташқари, маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва тажриба алмашиш мақсадида 2022 йилнинг ўзида **5 мартаба** республика форум ва конференциялари ўтказилгани, соҳа ходимларининг маънавий салоҳиятини янада ошириш мақсадида улар билан театр, музей ва маданий мерос объектларига 7 мингга яқин саёҳатлар уюштирилгани алоҳида эътироф этилди.

Саъй-ҳаракатларнинг

муҳим жиҳатларидан яна бири осойишталигимиз посбонлари орасида китобхонликни ривожлантириш ва бунинг учун қулай шарт-шароитлар яратиш борасида ҳам талайгина ишлар қилинганидир. Хусусан, ўтган давр мобайнида **895 та** китоб ярмаркалари, ходимлар

рилиши лозим бўлган вазириларида «Энг яхши маънавият тарғиботчиси» кўрик-танлови ўтказилиши ҳамда ходимларнинг касбий салоҳиятини аниқлаш мақсадида ҳар йили касбий олимпиада ўйинлари ташкил этилиши белгиланди. Бундан ташқари, «Касб аълочиси» идоравий кўкрак нишон таъсис этилиб, олимпиада

лаб эса ички ишлар органларида «Энг яхши маънавият тарғиботчиси» кўрик-танлови ўтказилиши ҳамда ходимларнинг касбий салоҳиятини аниқлаш мақсадида ҳар йили касбий олимпиада ўйинлари ташкил этилиши белгиланди. Бундан ташқари, «Касб аълочиси» идоравий кўкрак нишон таъсис этилиб, олимпиада

борада мустаҳкам пойдевор бўлганини фахр билан келтириб ўтди. Шунингдек, ИИВ Академияси кутубхонасига уюшма томонидан совға қилинган 100 дона турли номдаги адабиётларни топширди.

Шундан сўнг генерал-майор Азизбек Икрамов, «Тонг юлдузи» газетаси бош муҳаррири Феруза Адилова, «Гунча» ва «Гулхан» журналлари бош муҳаррирлари Дилфуза Шомаликова ҳамда Захро Ҳасановалар иштирокида Ички ишлар вазирлиги ва мазкур таҳририятлар ўртасида ўзаро ҳамкорлик тўғрисидаги меморандумни имзолади.

Соҳада амалга оширилган ишлар юзасидан ўз фикр-мулоҳазаларини билдириш учун сўз олган ИИВ Фахрийлар кенгаши раиси, истеъфодаги генерал-майор Эркин Норғитов тизимдаги ёш ходимларни ўз касбига меҳр-муҳаббат ва садоқат руҳида тарбиялашда маънавий-маърифий тадбирлар муҳим аҳамият касб этганлиги, айниқса, тартиб-интизом ва қонун бузилишларининг олди олиниб, осойишталигимиз посбонлари ички ишлар органлари ходими деган шарафли номга муносиб бўлганлигини таъкидлади.

– Ички ишлар вазирлиги ва «Тонг юлдузи» газетаси билан ҳамкорлик меморандумини имзолашдан кўзланган асосий мақсад ҳам тизимда фаолият кўрсатаётган ижодга меҳри баланд бўлган осойишталик посбонлари ва уларнинг фарзандларининг шеър ва ҳикояларини ушбу нашрда чоп этиш, келажакимиз эгаларини таҳририятимиз томонидан эълон қилинган турли танловларда ҳам иштирокини таъминлаш орқали, уларнинг бор истеъдод ва салоҳиятларини янада ривожлантиришдан иборатдир, – дейди мазкур газета бош муҳаррири Феруза Адилова.

Михли САФАРОВ,
«Postda» мухбири.
Абу КЕНЖАЕВ
олган суратлар.

КОНЦЕПЦИЯ: ЮТУҚ ВА ИСТИҚБОЛЛАР

ва уларнинг оила аъзолари, таълим муассасаларининг курсантлари ва ўқувчи-ёшлари ўртасида **1 минг 172 та** китобхонлик танловлари ташкил этилди. Ички ишлар органлари тарихини ёритувчи **298 та** китоб чоп этилиб, ходимларнинг кутубхонага аъзолик даражаси

томонидан ўқилиши лозим бўлган китоблар рўйхатининг 2-фаслини бошлаш, яъни, ҳудудларнинг ўзига хос хусусиятлари, қаҳрамонлари, буюк шахслари, ёзувчи ва шоирлари танлаб олиниб, ҳар бир ҳудуд учун алоҳида китоблар рўйхати тасдиқлашнинг таъкидлади. Шу билан бирга, ҳар бир ходимга

ғолибларига берилиши кўзда тутилди.

Юқоридагилар билан биргалликда, тизимда амалга оширилган маънавий-маърифий ишларга бағишланган видеоролик ҳам иштирокчилар эътиборига намоиш этилди.

Республика Маънавият ва маърифат маркази раҳбарининг биринчи ўринбосари Фурқат Жўрақулов ҳам ўз сўзида вазирлик томонидан қилинган маънавий-маърифий ишлар ўз самарасини бериб, соҳа ходимларининг халқ билан мулоқот жараёнидаги муомала маданияти ҳамда касбига бўлган садоқати тубдан яхшиланганлиги, бу ҳақиқат кўп сонли аҳолимиз томонидан ҳам эътироф этилаётганлигини билдириб ўтди. Бу борада ўз қўл остидагиларга намуна бўлаётган тизимдаги раҳбарларнинг ҳам ўрни беқиёс эканлигини келтирди.

Анжуманда сўзга чиққан Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси раисининг маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва давлат тилида иш юритишнинг ривожлантириш бўйича маслаҳатчиси, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган журналист Салим Ашуров ички ишлар органлари ходимларининг маънавий салоҳиятини оширишда китоб беқиёс аҳамият касб этишини таъкидлади. Тизимда икки йил давомида кенг кўламли ўтказилган китоб ярмаркалари ва «Китобхонлик» танловлари бу



80 фоизга ошди.

Тизимдаги ёш ходимлар, тингловчи ва курсантлар учун «**маънавият донорлари**» ҳисобланган фахрийлар билан ҳам кўплаб маънавий-маърифий ва ватанпарварлик тадбирлари ўтказилгани, шунингдек, 3 мингдан ортиқ «Уч авлод» учрашувлари ташкил этилгани, энг муҳими, қилинган шунча саъй-ҳаракатлар натижасида хизмат-интизоми бузилиши **17 фоизга**, қонунийлик бузилиши эса 29 фоизга яхшилангани ҳам эътиборга моликдир.

Келгусида амалга оши-

10 та китоб тамойили асосида кутубхоналар фондини янада бойитиш белгиланди. Шунингдек, тизимда идоравий музейлар фаолиятини ривожлантириш, унга кўра, ИИВ «Жар» спорт-соғломлаштириш комплексида барча юртимиз аҳолиси томоша қилиши учун тизим фаолиятдан ҳикоя қилувчи музей ташкил этилиши, шу билан бирга, 2023–2024 йилларда тизимдаги **6 та** соҳавий хизматда жами **12 та** янги музейлар барпо этилиши тилга олинди. Жорий йилдан бош-





9-may – Xotira va qadrlash kuni

MATONATLI MARIYA MOMO

Yaqin-yaqingacha ko'ksini II jahon urushida ishtirok etganligi yoki front ortida mehnat qilganligidan darak beruvchi orden va medallar bezagan otaxonu onaxonlarga tez-tez ko'zimiz tushardi. Yillar ularni oramizdan ayovsiz olib ketmoqda. Bugungi kunda Jizzax viloyatida o'sha mash'um qirg'inni boshidan kechirgan yuzlab insonlarning bor-yo'g'i 6 nafarigina hayot.

Ulardan biri shu yilning 3 martida 100 yoshga kirgan Mariya Abdurahimovadir. Ukrainaning Cherkas viloyati Zvenigorod tumani Morinsi qishlog'ida tug'ilib o'sgan Mariya Ovsiyenko II jahon urushi boshlanganda endigina 16 yoshga to'lgandi. Fashistlar Ukrainani ishg'ol qilganidan so'ng, aniqrog'i, 1942-yilda minglab insonlar qatorida, Mariya ham Germaniyadagi konsentratsion lagerlardan biriga olib ketildi.

U urush tugagandan keyingina uyiga qaytishga muvaffaq bo'ldi. Qishlog'ida ish topa olmagach, Kiyevdagi zavodga joylashdi. Shu yerda Samarqand viloyatining Payariq tumanidan Ukrainaga harbiy xizmatga chaqirilgan Karim Abdurahimov bilan tanishadi va ular oila quradilar. Ko'p o'tmay Abdurahimovlar Payariqqa qaytib, hududdagi chorvachilik fermasiga ishga kirishadi.

Mirzacho'l o'zlashtirila boshlangach, Jizzax viloyati Paxtakor tumani «Bog'ishamol» mahalla



fuqarolar yig'iniga kelib joylashadilar. Bu yerda Karim Abdurahimov paxtachilik xo'jaligida, Mariya esa qurilish korxonasida suvoqchi va bo'yoqchi bo'lib faoliyat ko'rsatadi. Pensiyaga chiqqandan keyin ham 10 yil davomida pochtagi bo'lib ishladi. Turmush o'rtog'i vafot etgach, bor kuch-g'ayratini 6 farzandini hech kimdan kam qilmay ulg'aytirishga yo'naltirdi.

Urushning og'ir musibatlariga shaxsan guvoh bo'lgan ayol butun umr yaqinlari, hamkasblari va mahalladoshlarini tinchlik va xotirjamlikning qadriga yetib yashashga undadi, barchaga birdek ezgulik sog'indi. Shu bois uni hurmat qilishadi, tez-tez yo'qlab turadilar.

Ayniqsa, Xotira va qadrlash bayrami nishonlanadigan kunlarda Mariya momoning turar joyi tantanavor ko'rinish oladi. Yaqinda jamoatchilik vakillari, harbiylar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar mas'ullari

Zafarobod tumani «Birlik» qishloq fuqarolar yig'ini Avaz O'tar ko'chasida yashovchi Mariya Abdurahimovaning xonadoniga tashrif buyurib, uni bayram bilan qutladilar.

Mazkur jarayonda Jizzax viloyati IIB boshlig'i, general-mayor G'ayrat Qodirov Mariya momoga Prezidentimizning qutlug' ayyom munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigini o'qib eshittirdi va mamlakatimiz rahbarining sovg'alari hamda 18 million so'm pul mukofotini topshirdi.

Qahramonimiz, Mariya Abdurahimovaning halol mehnatlari munosib baholangan. Samarali mehnatlari uchun bir qator medal va nishonlar bilan taqdirlangan. Xullas, inson qadri har nedan ulug' o'lkamizda yurt ravnaqi va ezgulikni hayotiga shior bilganlar, shubhasiz, e'zoz topadi, unutilmaydi.

Alijon ABDUSATTOROV,
«Postda» muxbiri.

Jizzax viloyati.

HAMKASBLAR NOMI – BARHAYOT



Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan Farg'ona shahrida joylashgan 10-son tergov hibsonasi boshlig'i, podpolkovnik Farhodjon Sidiqjonov rahbarligidagi bir guruh xodimlar marhum safdoshlari, safdor Zuhra Hasanovaning xonadoniga yo'qlab

borib, yaqinlari va farzandlari holidan xabar oldilar. Oilaga bayram sovg'alari topshirildi.

Safdor Zuhra Hasanova bir necha yil davomida tergov hibsonasi tartibot bo'limida nazoratchi bo'lib ishlagan. 2021-yilda bevaqt hayotdan ko'z yumgan.

Hozirda uning ikki nafar farzandi – Nozimabonu Uzoqova hamda Zafarbek Uzoqovlar ota-onalari orzu



qilganidek bilimli va salohiyatli inson bo'lib kamolga yetish uchun o'qib-izlanishmoqda. O'g'li kelajakda ichki ishlar organi xodimi bo'lishni niyat qiladi.

Xonadon vakillari ko'rsatilgan ehtirom va g'amxo'rlik uchun hibsxona rahbariyatiga minnatdorlik bildirdilar.

O'z muxbirimiz

Farg'ona viloyati.



Yo'l qoidasi – umr foydasi

TARBIYALANUVCHILAR XAVFSIZLIGI UCHUN

Yo'llarda to'g'ri harakatlanish inson hayoti uchun muhim sanaladi. Ayniqsa, bu jarayonda bolajonlarning bilimni oshirish, ularni yo'l qoidalari bilan yaqindan tanishtirib borish yanada ahamiyatli. Bu esa o'z-o'zidan bolalar bilan bog'liq yo'l harakati hodisalarining oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Joriy yilning 4-may kuni Ichki ishlar vazirligi tasarrufidagi 4-sonli maktabgacha ta'lim muassasasida ham «Hayoting xavfsizligi – o'z qo'lingda» mavzusida yo'l harakati qoidalari bo'yicha tarbiyalanuvchilar o'rtasida qiziqarli mashg'ulot tadbiri o'tkazildi.

Toshkent shahar IIBB YHXB 3-batalyon safarbarlik guruhi inspektori, safdor D.Ubaydullayev tarbiyalanuvchilarga avtomobil yo'llari va ulardagi yotiq chiziqlar, yo'llarda harakatlanish qoidalariga rioya etish, yo'l belgilarini ajratish bo'yicha barcha uchun zarur birlamchi ma'lumotlarni aytib o'tdi.

Savol-javob tarzida o'tgan ushbu tadbirda barcha tarbiyalanuvchilar faol qatnashdi, chorrahalaridan o'tishda yo'l harakati qatnashchilarining xatti-harakatlari teatrlashtirilgan tarzda ko'rsatildi.



Международное сотрудничество

ВСТРЕЧА РАБОЧЕЙ ГРУППЫ

В Ташкенте состоялась 1-я Встреча рабочей группы Проекта Интерпола «Geiger» для Центральной Азии, в которой приняли участие эксперты Генерального секретариата Интерпола, представители МВД, МЧС, ГТК, Государственного комитета промышленной безопасности, Института ядерной физики АН Республики Узбекистан, а также Министерства энергетики США, делегации Казахстана, Кыргызстана, Таджикистана, Туркменистана.



Целью мероприятия было содействие государствам в формировании собственного потенциала для расширения возможностей по обнаружению радиоактивных и ядерных материалов, реагированию на радиологические инциденты (обнаружение, измерение, идентификация, сбор информации, сбор улик и т. д.), проведению следственных мероприятий при их обнаружении.

Проект «Geiger» основан в 2002 году. Его задача – сбор и анализ информации о незаконном обороте ядерных и радиоактивных материалов и об иной несанкционированной деятельности с ядерными

материалами. Узбекистан к деятельности Проекта присоединился в 2015 году. Являясь давним и активным его участником, НЦБ Интерпола в Республике Узбекистан инициировало в качестве пилотного проекта создание

рабочей группы с привлечением представителей приграничных стран. В ходе мероприятия акцент был сделан на межведомственной координации и обмене информацией по радиационным и ядерным инцидентам прежде всего на национальном уровне.

Эксперты Генерального секретариата Интерпола и представители делегаций дали высокую оценку дея-



тельности НЦБ Интерпола в Узбекистане, устремленности к дальнейшему наращиванию и укреплению потенциала в деле борьбы с трансграничной преступностью.

Ирина БУДАГОВА,
подполковник.

Malakali kadrlar – yutuqlar garovi

SOHA RIVOJI YO'LIDA

IIV Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti Xizmat o'tashni hisobga olish va monitoring boshqarmasiga nimadir yumush bilan borgan kishi, qizg'in ish jarayoniga guvoh bo'ladi.

– Joriy yilda xizmat vazifasiga sidqidildan yondashib, jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga munosib hissa qo'shib kelayotgan 34 nafar xodimga rag'batlantirish tariqasida muddatidan avval hamda egallab turgan lavozimi bilan ko'zda tutilganidan bir pog'ona yuqori navbatdagi maxsus unvonlar berildi, – deydi boshqarma boshlig'i o'rinbosari, mayor Ilyos Shirinov. – Xodim va harbiy xizmatchilarning 8 nafariga polkovnik, 306 nafariga podpolkovnik, 2 ming nafardan ortig'iga navbatdagi mayor, kapitan, katta leytenant, leytenant hamda serjantlar tarkibining maxsus va harbiy unvonlari, 8 mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan 19 nafar xodimga rag'batlantirish tariqasida navbatdagi maxsus unvonlar tantanali tarzda topshirildi.

Bundan tashqari, 49 nafar osoyishtalik posboniga o'tagan xizmat yillariga foiz hisobida ustama haqlar o'rnatildi. Shu bilan birga, ichki ishlar organlari faoliyatiga raqamli va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish maqsadida xodimlar va ishchi-xizmatchilar uchun yangi namunadagi QR kodli guvohnomalar rasmiylashtirib bermoqda.

Shaxsiy tarkibga mehnat ta'tillari berish, xodimlarning xizmat guvohnomalari va jetonlari (shaxsiy raqami) ning muddati va yaroqliligini nazorat qilish hamda joylardagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati xodimlarining faoliyatini tekshirib, aniqlangan kamchiliklar bo'yicha ularga amaliy yordam ko'rsatish ishlari ham muvaffaqiyatli ado etib kelinmoqda. Shuningdek, xizmat guvohnomasini yo'qotgan xodimlarga nisbatan xizmat tekshiruvlari o'tkazilib, tegishli tartibda intizomiy ta'sir choralari ko'rilyapti.

Bir so'z bilan aytganda, boshqarma xodimlari soha rivoji yo'lida bor kuch va g'ayratlarini ayamasdan, astoydil xizmat qilib kelishmoqda.

Feruz ALLABERGANOV,
mayor.

«МЫ РАДЫ СОЗДАНЫМ УСЛОВИЯМ»

Недавно в Туракурганском и Янгикурганском районах Наманганской области начали действовать регистрационно-экзаменационные отделы.

Следует отметить, что в новых подразделениях для посетителей созданы все необходимые условия. В залах ожидания организованы медиа уголки, информирующие о новшествах в ПДД. Здесь можно ознакомиться со специализирован-

ными периодическими изданиями, пособиями по безопасности дорожного движения. Сотрудники оказывают услуги быстро и качественно.

– Раньше ездили в город Наманган. Иногда на обмен водительского удостоверения или получение но-



мера на автомашину уходил целый день. Мы рады созданным условиям. Экономятся и время, и деньги, – отмечает житель Туракурганского района Дониёр Ибрагимов.

– Созданный в Туракурганском районе регистрационно-экзаменационный отдел обслуживает жителей Туракурганского, Чустского и Мингбулакского районов, анало-

гичный отдел, функционирующий в Янгикурганском районе, оказывает услуги жителям Янгикурганского и Чартакского районов, – говорит старший инспектор пятой межрайонной регистрационно-экзаменационной группы УБДД СОБ УВД Наманганской области капитан Азизбек Исмаилов.

Соб. кorr.





Урушнинг тирик афсоналари

«КАТЮША»ГА ЎЙНАЙДИГАН БОБО

Олтиариқлик Тўланбой ота Шокиров урушга кетганида 18 ёшга тўлиб улгурмаган йигит эди. Бир неча йил қонли жангларда қатнашиб, Яратганнинг инояти билан она юртга эсон-омон қайтиб келди. Кейин эса ички ишлар органлари сафига ишга кирди. 30 йил ёнғин хавфсизлиги хизматида самарали меҳнат қилиб, эҳтиром билан пенсияга чиқди.

Айни кунда 97 ёшни қаршилаётган отахон истиқомат қиладиган хонадондан меҳмонларнинг қадами узилмайди. Юзидан хушчақчақлиги ва самимийлиги шундоққина сезилиб турадиган отахон дориламон кунларга шукрона келтириб, ёшларга ўғит ва маслаҳатлар беради.

– Юртбошимизга катта раҳмат, биз кексаларга доим ғамхўрлик кўрсатмоқда, – деди нуроний. – Ёшлиқда кўп қийинчиликларни бошдан кечирдик, уруш даҳшатларини кўрдик. Бугунги ёшлар эса жуда бахтиёр, улар тинч ва осуда замонда яшамоқда. Тинчликнинг қадрига етиб, ўқиб-изланиб, Ватан равнақиға муносиб ҳисса қўшиши керак.

Тўланбой ота 4 нафар фарзанди, 50 нафарга яқин неварачеваралари қуршовида кексалик гаштини сурмоқда. Вилоят Ички ишлар бошқармаси раҳбарияти,



туман ҳокимлиги ва Ички ишлар бўлими мутасаддилари, ҳудуд профилактика инспектори ҳамда маҳалла фаоллари уни доим йўқлаб, ҳолидан хабар олиб туришибди. Хотира ва қадрлаш куни байрами яқинлашгани сари Тўланбой ота хонадони янада файзга тўлмоқда.

– Илгари қаерда байрам тадбирлари бўлса, албатта борардим, – дейди отахон. – «Катюша»га рақсга тушардим. Қариллик экан, бир-икки

йилдан бери тадбирларга боролмай қолдим. Қанийди, яна ёшлиққа қайтсам-у, оёқларимга дармон кириб, маза қилиб «Катюша»га рақсга тушсам...

– Тўланбой отанинг кувноқ суҳбатидан баҳраманд бўлиш учун тез-тез йўқлаб тураман, – дейди «Оқбўйра» маҳалласига хизмат кўрсатувчи профилактика инспектори, капитан Зафаржон Қўшматов. – Отахон ислохотлар, турли соҳаларда юз бераётган ижобий ўзгаришларга ҳам бефарқ эмас. Яқинда бўлиб ўтган референдумда ҳам фаол иштирок этиб, уйда ўтириб, овоз берди.

Яқинда Хотира ва қадрлаш куни муносабати билан Фарғона вилояти ҳокими Хайрулло Бозоров, вилоят Ички ишлар бошқармаси бошлиғи, полковник Муҳиддин Жўраев ҳамда тегишли мутасадди раҳбарлар Тўланбой ота Шокировнинг



хонадониди бўлишди.

Фахрийга Давлатимиз раҳбари ва Ички ишлар вазирининг байрам табриклари ўқиб эшиттирилди. Президентимиз фармониға биноан ажратилган пул маблағи топширилди. Шунингдек, Ички ишлар вазирлигининг пул мукофоти ҳамда вилоят ИИБ раҳбариятининг

қимматбаҳо совғалари ҳам тақдим этилди.

Нуроний кўрсатилган эҳтиромдан шод бўлиб, юртимиздаги тинчлик ва барқарорлик абадий бўлишини сўраб дуо қилди.

Абдусит СИДИҚОВ,
«Postda» мухбири.
Фарғона вилояти.



Фахрийлар – фахримиз

МУВАФФАҚИЯТ СИРИ – МЕҲНАТДА

Норин тумани маҳаллаларида томорқадан фойдаланиш бўйича ўрганишлар чоғида туман «Маҳалла» жамоат фонди раиси Қобилжон Қўчқоров бизга ҳамроҳлик қилди. Талабчан, интизомли, ташаббускор раҳбарнинг иш услубини ишчи гуруҳ аъзолари «ички ишлар органларида ишлаган-да, интизомға қатъий амал қилади», дея эътироф этишди. Суҳбат мавзуси Қобилжон аканинг Норин тумани ИИБ Фахрийлар кенгаши раҳбари сифатидаги фаолиятига ҳам қаратилдики, бу йўналишда ҳам яхши ишларни амалға ошираётган экан.

Айни пайтда 63 ёшда бўлган қахрамонимиз тиниб-тинчимайди, жуда масъулиятли. Бу сифатлар унга кўп йиллар ички ишлар органларида хизмат қилган даврдан мерос, десак, янглишмаган бўламан.

Ўз фаолиятини 1984 йилда Норин тумани ИИБ кўриқлаш бўлинмасида оддий ходим сифатида бошлаган Қобилжон интизомлилиги, касбга бўлган меҳри туфайли орадан беш-олти йил ўтгач, бўлинмага бошлиқ бўлди. Кейинчалик туман ИИБ ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш бўлинмаси бошлиғи сифатида ҳуқуқбузарликлар ва жиноятчиликнинг олдини олишга катта ҳисса

қўшди, етарли тажриба тўплади.

Қобилжон ака пенсияға чиққандан сўнг ҳам эл-юрт равнақи йўлида хизмат қилиб келмоқда. Бир неча муддат қишлоқ фуқаролар йиғини раиси бўлди. «Ғалаба» ММТПга бошлиқ этиб тайинланди. Ўтган йилдан буён эса «Маҳалла» хайрия жамоат фонди бўлимини бошқариб келмоқда. У тумандаги маҳалла фуқаролар йиғинлари моддий-техник базасини мустаҳкамлаш, ҳашарлар уюштириш, турли тадбирларни ташкиллаштиришга бош-қош.

Тумандаги 430 нафар ички ишлар органлари фахрийсини 57 та маҳаллага бириктириш, улар тажрибаси-

ни ёш ходимларға ўргатиш борасида ҳам тизимли ишлар ташкил этилган.

– Вилоят Ички ишлар бошқармаси бошлиғининг фармойишиға кўра, «Наманган тажрибаси» сифатида фахрийларни эъзозлаш, уларнинг бой тажрибасидан фойдаланиш борасидаги ишлар ўз самарасини бермоқда, – дейди Қобилжон ака. – Бу эса соҳада фидойилик билан ишлаган фахрийлар меҳнатини қадрлаш, ёшларни катталарға ҳурмат руҳида тарбиялашға хизмат қилса, иккинчи томондан, соҳада инсон қадрини улуғлаш эзгу анъанаға айланмоқда.

Қобилжон Қўчқоров жамиятда



Суратда: Қобилжон Қўчқоров Норин тумани ҳокими Жўрабек Нурматов билан.

фаол бўлиши билан бирга, намунали оила соҳиби. Хайринисахон ая билан фарзанду набиралари ардоғида умргузаронлик қилишмоқда. Яхши тарбия туфайли фарзандлари ҳам ҳаётда ўз ўрнини топишган. Ўғли Фарҳоджон туман Давлат хизматлари марказида фаолият олиб бормоқда. Фозилжон эса ички ишлар органлари ходими, Фаррух тадбиркор. Саккиз набираининг меҳрибон бобо ва бувижониси Қобилжон ака ва Хайринисахон аяға кўплар ҳавас қилишади.

Гулчеҳра БУВАМИРЗАЕВА,
«Postda» мухбири.
Наманган вилояти.



✓ *Ҳақиқат эгилади, аммо синмайди*

ЗУЛМАТГА АЙЛАНГАН ЎН ЙИЛ

Айбсиз эканлигини билиб турсанг-у, тухмат сабаб жиноятчига айлансанг, бундан аламлиси бўлмаса керак. Қолаверса, ноҳақдан-ноҳақ «судланган» деган тамға билан бир умр яшаш... Худди шу каби адолатсизлик қурбонига айланганлардан бири Қорақалпоғистон Республикаси ИИБ ходими, катта лейтенант Даулет Юсуповдир.

1983 йили Чимбой туманида туғилган Д. Юсупов ўрта мактабда ўқиб юрган пайтдаёқ акиси Елиубай каби ички ишлар ходими бўлишга бел боғлади. Ана шу орзусини амалга ошириш мақсадида 2002 йили ИИБ Академиясига ўқишга кирди. 2006 йили ўқишни тамомлаб, хизматни Чимбой тумани ИИБ ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш гуруҳи инспектори лавозимида бошлади. Кейинчалик ЖКБ йўналишида ҳам фаолият юритишга улгурди.

Тўсатдан ҳаммаси остин-устун бўлиб кетди. 2010 йил жиноятга қўл урган, дея гумон қилиниб, прокуратура органларига чақиртирилди. Бу ерда гўеки икки йил аввал икки киши ўртасида содир бўлган жанжал туфайли ишни босди-босди қилишда пора олган, дея устидан ариза ёзилганини кўриб хайрон қолди. Ачинарлиси, Д. Юсупов бундай ҳолатнинг ўзи содир бўлмаганини ту-

шунтиришга уриниб, ўзини қанчалик оқлашга ҳаракат қилмасин, бефойда кетди. Терговнинг асоссиз айблов хулосаси судга ўтказилиб, адолатсиз қарор қабул қилиниши оқибатида озодликдан маҳрум этилди. Бир инсоннинг ҳуқуқи шунчаки поймол қилиниб, қадр-қиммати оёқости қилинди. 2013 йилга қадар ушбу ноҳақ чиқарилган ҳукм туфайли жазо муддатини ўтади.

Ҳаётда инсон номуси барча нарсадан устун туради. Уни ҳимоялаш учун кишига кучли ирода, сабр-тоқат зарур. Бир кун келиб ҳақиқат юзга чиқишига ишонган Д. Юсупов ҳам асло умид қилишдан қолмади. У 2020 йили ўзига қўйилган айбловларни олиб ташлаш, ҳуқуқини тиклашни сўраб, Қорақалпоғистон Республикаси жиноят ишлари бўйича судига мурожаат этди.

Ўтказилган суд мажлисида адолат қарор топиб, оқлов ҳукми эълон қилинди. 2022 йилда бўлса



фуқаролик ишлари бўйича Нукус туманлараро судида Д. Юсуповни ишга қайта тиклаш бўйича қарор чиқарилди.

– Ўша зулматга тўла йилларда бошимдан не-не хаёл, ташвишли дамлар ўтмади, дейсиз. Атрофдаги айрим кишиларнинг ўзгарган муносабатини кўришнинг ўзи яна бир карра зарба бўларкан. Яратган эгам яхши кўрган бандасига синов беради, дейишади. Худога шукр, бугунги кунга келиб, шаънимни оқлашга, ишга қайта тикланишга

муваффақ бўлдим. Яқинда Ички ишлар вазири, генерал-лейтенант П. Бобожоновнинг шахсан ўзи катта лейтенант унвонини топширди. Бу пайтдаги ҳис-ҳаяжонимни сўз билан етказиб беришнинг иложи йўқ. Келгусида бизга билдирилган ана шу ишончга муносиб ҳолда виждонан, бор куч-ғайратим билан хизмат қилишга ваъда бераман, – дейди Д. Юсупов.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
«Postda» мухбири.
Қорақалпоғистон Республикаси.

✓ *День памяти и почестей*

ОСТАЛСЯ В СЕРДЦАХ ЛЮДЕЙ



Шарофуддин Худоев родился в 1957 году в кишлаке Аввал Ферганского района. В 1978-1980 годах обучался в Ташкентской средней специальной школе МВД, после окончания которой в течение нескольких лет работал инспектором профилактики ОВД города Ферганы. Стремясь стать профессионалом, без отрыва от службы обучался на заочном отделении Ташкентской высшей школы МВД.

В органах правопорядка Ш. Худоев прошел путь от инспектора до начальника управления. Являлся заместителем начальника по службе ОВД Ферган-

В народе говорят: «Хороший человек, благодаря добрым делам, навсегда остается в наших сердцах».

Все, кто знал подполковника Шарофудина Худоева, вспоминают его с особой с теплотой.

ского района, начальником отдела охраны ОВД города Ферганы, заместителем начальника УООП, начальником УПП УВД области. На заслуженный отдых вышел в 2005 году.

Подполковник Ш. Худоев щедро делился с молодыми сотрудниками знаниями и опытом, осуществлял наставничество. Один из его учеников – полковник Илхомжон Эргашев в настоящее время возглавляет УООП СОБ УВД Ферганской области. Его ученик подполковник Фаррухбек Усаров служит заместителем начальника УВД области, начальником Службы общественной безопасности. Своим наставником считают Ш. Худоева подполковник Ойбек Каримов, майор Гайратжон Бахромов и многие другие.

Шарофуддин Худоев вместе с супругой Гулно-

рой Курбоновой воспитали троих детей. Старший сын, Умиджон Худоев, пошел по стопам отца, в 1998-2019 годах служил в оперативных подразделениях УВД.

– Отец был предан своей профессии, – говорит майор в отставке Умиджон Худоев. – В органы правопорядка я пришел, следуя его примеру. Кроме отца в ОВД служили и мои дяди – Махаммаджон, Косимжон, Шухратжон Охуновы. На пенсию они вышли в звании майора.

В доме, где жил Шарофуддин Худоев, всегда многолюдно – дети, внуки, благодарные ученики, в сердцах которых он оставил добрую память о себе.

Абдувосит СИДИКОВ,
корреспондент
«Postda».

Ферганская область.



В Академии МВД Республики Узбекистан состоялось мероприятие, на которое были приглашены ветераны сферы и образовательного учреждения.

Начальник Академии полковник Рустам Хатамов отметил вклад представителей старшего поколения в дело воспитания стражей порядка, в подготовку квалифицированных специалистов для органов внутренних дел страны, подчеркнул, что профессионализм, богатый опыт и знания ветеранов – всегда востребованы.

Для ветеранов был накрыт богатый дастархан. Звучали военные и патриотические песни.



XIZMATLARDA



XAVFSIZLIK ISHONCHLI QO'LLARDA

Toshkent shahar aeroportlarida xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi PPX otryadi xodimlarining hushyorligi, o'z vazifalarini sidqidildan ado etayotgani tufayli joriy yilning o'tgan davrida xizmat hududida og'ir turdagi jinoyatlar, shuningdek, qasddan badanga og'ir tan jarohati yetkazish, bosqinchilik, talonchilik jinoyatlari sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi. Soha xodimlari tomonidan shaxsini aniqlash va profilaktik suhbat o'tkazish uchun olib kelingan 191 nafar shaxsdan 121 nafariga turli ko'rinishdagi huquqbuzarlik sodir etgani uchun ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilgan.

Huquqbuzarliklarning aksariyati belgilanmagan joyda tamaki mahsulotlari chekish bilan bog'liqdir. Shuningdek, ichki ishlar organlari xodimlarining qonuniy talabiga bo'ysunmaslik, jamoat joyida spirtli ichimlik ichish kabi huquqbuzarliklar ham sodir etilgan. Shu davrda sohaviy xizmat xodimlari bir nafar qidiruvdagi shaxsni qo'lga olib, tergov idoralariga topshirishdi.

Joriy yilning 16-aprel kuni Toshkent xalqaro aeroporti uchib ketish zalida «Toshkent – Sochi» yo'nalishidagi reys bilan uchib ketuvchi Otabek Vahobov ichida hujjatlari




hamda pul mablag'lari bo'lgan qo'l yukini yo'qotib qo'ydi. Samolyotga chiqish e'lon qilingan, fuqaro murakkab vaziyatga tushib qolgandi. U PPX otryadi xodimlariga yordam so'rab murojaat qildi. Otryadning safdor xodimi, safdor

Ruslan Yakubov vaziyatni to'g'ri baholab, tezkor harakat qildi. U olib borgan surishtiruv ishlari natijasida qo'l yuki topilib, fuqaro O. Vahobovga topshirildi.

Shu kuni Toshkent xalqaro aeroportining uchib ketish zalida «Toshkent – Abu Dabi» yo'nalishidagi reys bilan uchib ketuvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Ulug'bek Norqulov ham uchishga biroz vaqt qolganda qimmatbaho telefonini yo'qotib qo'yib, ichki ishlar organlari xodimlaridan ko'mak so'radi. PPX otryadi safdor xodimi, safdor Ruslan Shafiyev shoshilinch qidiruv-surishtiruv ishlarini olib borib, telefonni topish choralari ko'rdi. Tez orada telefon apparati uchib ketish zalida joylashgan o'rindiq tagidan topilib, fuqaro U. Norqulovga topshirildi.

Aeroportlardan deyarli har kuni yuqori martabali mehmonlar, mahalliy va xorijiy davlatlar delegatsiyalari kuzatiladi va kutib olinadi. Bunday paytda xavfsizlikni ta'minlash, jamoat tartibini saqlash har vaqtdagidan ko'ra dolzarb ahamiyat kasb etadi. Joriy yilning o'tgan davrida PPX otryadi xodimlari boshqa sohaviy xizmat vakillari bilan hamjihatlikda, hamkorlikda xizmat olib borishgani tufayli hech qanday ko'ngilsiz hodisa yuz bermadi.

Foziljon MAMASHARIPOV,
«Postda» muxbiri.



MUXBIRLARIMIZ
XABAR BERADI

Farg'ona viloyati

«Xonadonbay» va «fuqarobay» ushbu mahallalarda ish olib borib, aholi muammolarini manzilli o'rganish, amaliy yordam berish, jinoyatchilikni jilovlash va fuqarolar orasida ahillik hamda hamjihatlikni mustahkamlashda Qo'qon shahridagi Amir Temur



nomidagi mazkur mahalla faollari namunali faoliyat olib borishmoqda. Natijada o'tgan yilda ushbu mahallada birorta ham jinoyat sodir etilmadi.

Shu munosabat bilan mahalladagi beshlik a'zolariga IIV HPX boshlig'ining tashakkurnomasi va pul mukofoti taqdim etildi.

Jizzax viloyati

Yaqinda «G'alaba» mahalla fuqarolar yig'inida yashovchilar ichimlik suvi bilan ta'minlash yuzasidan murojaat qilishgandi. Shu asosda Jizzax viloyatining Mirzacho'l tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha 3-sektor shtabi



rahbari J.Karimov boshchiligida hudud aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash choralari ko'rilyapti. Shuningdek, ushbu mahallaning «Taraqqiyot» ko'chasiga shag'al yotqizilmoqda.





12 май – Халқаро ҳамширалар куни

ХУШМУОМАЛАЛИК – КАСБИНИНГ БЕЗАГИ

■ Тошкент шаҳри

Камола Мусаева – Ички ишлар вазирлиги Марказий поликлиникаси кундузги стационар ҳамшираси. 1990 йилда мазкур даргоҳга шохобча ҳамшираси бўлиб келган тиббиёт фидойиси қарийб 33 йил мобайнида кўплаб беморларни даволашда ўз ҳиссасини қўшди.



Стационардаги беморларга муолажа қилишдан ташқари, тез тиббий ёрдам орқали чақирувларга ҳам чиқиб турадиган қаҳрамонимиз ўзининг ширинсуханлиги билан беморлар дардига малҳам бўлмоқда.

Шифокор шифо истаб келган инсонни тинглай олиши, унга кўмак бериш учун барча имкониятларни ишга солишга тайёр туришини жуда муҳим деб билган Камола опа оилада ҳам меҳрибон

она. Турмуш ўртоғи билан икки нафар фарзандини вояга етказиб элга қўшди.

Бир сўз билан айтганда, қасамёдига содиқ қолиб, беморларни даволаш йўлида намунали хизмат қилаётган К. Мусаевага келгуси фаолиятида омад тилаймиз. Зеро, буюк бобомиз, тиббиёт илмининг отаси Абу Али ибн Сино айтганидек, шоир тилнинг амири бўлганидек, табиб баданнинг шоҳидир.

■ Самарқанд вилояти

– Ҳаётда энг бебаҳо неъмат саломатликдир, – дейди ИИБ Тиббиёт бошқармаси Реабилитация маркази (Самарқанд шаҳар) бош ҳамшираси **Диёра Қодирова**. – Уни асраш эса ҳар бир инсоннинг ўз қўлида. Бироқ дард кўпинча кутилмаганда келади. Фаолиятим мобайнида озми-кўпми жисми жони хасталиқдан азият чеккан юртдошларимизга нафим текканидан хурсандман. Ҳар гал тиббиёт муассасамизда керакли муолажаларни олиб, юз-кўзларида қувонч билан уйига, яқинлари бағрига ошиққанларни очиқ чехра билан кузатиб, мустаҳкам тани-сиҳатлик тилайман.

Айни пайтда Реабилитация марказида Диёра Қодирова сингари ўз касбининг сирларини пухта ўзлаштирган ўттиздан ортиқ қўли енгил ҳамширалар меҳнат қилади. Бунинг саломатлиги тикланганидан мамнун ички ишлар органлари ходимлари, фахрийлар ва уларнинг оила аъзоларининг «Борингизга шукур, саломатлигимиз посбонлари!» дея билдирган дил изхоридан ҳам билиш мумкин.



■ Қорақалпоғистон Республикаси

1979 йили Шуманай туманида таваллуд топган **Бахитгул соҳага шунчаки келиб қолмаган**. Онаси **Олмаҳон опа ҳамшира бўлиб ишлагани боис**, у тиббиёт ходими бўлиш қанчалик масъулиятли ва шарафли касб эканлигидан озми-кўпми хабардор эди. **Волидаси каби тиббиёт ходими бўлишни орзу қилган Бахитгул ҳам шу мақсадда 1996 йили Нукус шаҳридаги 1-сонли Тиббиёт коллежига ҳужжат топширди.**



Ўқишни тамомлаганидан сўнг маълум муддат Шуманай тумани Тиббиёт бирлашмасида ҳамшира бўлиб ишлади. 2006 йилдан эса Қорақалпоғистон Республикаси ИИБ Тиббиёт бўлимига қарашли госпиталда физиотерапия ҳамшираси сифатида фаолиятини давом эттирмоқда.

– Кимгадир яхши ниятлар билдирганда, албатта, саломатлик, мустаҳкам соғлиқ тилаймиз. Негаки ҳаётда инсон учун энг зарури соғлиқдир. Соғлиқ бўлмаса, ҳеч нарса татимайди. Тиббиёт ходимлари эса инсон ҳаёти, соғлиғи учун

жавобгар бўлган масъулиятли касб эгалари ҳисобланади. Ҳар қандай касб эгасига меҳнати учун чин кўнгилдан раҳмат эшитишдек завқ бўлмаса керак. Мен ҳам шундай шарафли касб эгалари қаторида эканлигимдан фахрланаман, – дейди Б. Ибадуллаева.

Таъкидлаш жоизки, Б. Ибадуллаева нафақат кўп йиллик тажрибага эга қўли енгил ҳамшира, балки бахтли оила бекаси ҳамдир. Ҳозирги кунда турмуш ўртоғи Абдумажид Бауетдинов билан бирга Маманбий ва Тимур исмли икки фарзандни тарбиялаб вояга етказишмоқда.

■ Навоий вилояти

Муқаддас Тўраева Навоий вилояти ИИБ Тиббиёт бўлими поликлиникаси бош тиббий ҳамшираси лавозимида фаолият олиб боради. У поликлиника ва кундузги стационардаги 20 нафардан ортиқ ҳамшираларнинг ишини тақсимлайди, навбатчилик вақтларини белгилайди. Бундан ташқари, патронажлик ҳаракатини ташкил этиш ҳамда муолажаларда бевосита қатнашади.

– Менинг турмуш ўртоғим кўп йиллар ички ишлар органларида хизмат қилган, айни пайтда пенсияда. Унинг умр йўлдоши сифатида мен ҳам шу поликлиника хизматидан фойдаланаман. Анчадан бери қон босимим кўтарилиб туради. Шу боис вақт-вақти билан тиббий кўрикдан ўтиб тураман, муолажаларни қанда қилмайман. Бунда Муқаддас опанинг ёрдами менга асқатади. Қўли енгил, ўз ишининг устаси, шу билан бирга ширинсўз. Беминнат хизматлари учун у кишига ташаккур айтаман, – дейди Гавҳар Нормуродова.



2001 йилдан буён бошқарманинг тиббиёт бўлимида фаолият олиб бораётган, ўз касбини муқаддас деб биладиган Муқаддас Тўраева кўплаб ёш ҳамшираларнинг меҳрибон ва талабчан устози. Дилдора Қаландарова, Шаҳноза Шомуродова, Дилноза Ҳақимова каби билимли ва изланувчан қизларга муолажа жараёнлари, дори-дармонлар хусусиятлари ва биринчи ёрдам кўрсатиш борасидаги билимларини ўргатиб келмоқда. Опанинг шогирдлари ҳамширалар ўртасида ўтказиладиган кўрик-танловларда фахрли ўринларни эгаллапти.

✓ *День памяти и почестей*

ПОМОЩЬ И ПОДДЕРЖКА

В преддверии Дня памяти и почестей командир воинской части № 7534 подполковник Алишер Шарипов вместе с сослуживцами посетили семью погибшего рядового Юсуфа Алишева.

Юсуф Алишев родился 15 июня 1988 года в Тайлакском районе Самаркандской области. С юности он отличался целеустремленностью. Еще в период обучения в сельскохозяйственном профессиональном колледже мечтал связать жизнь со служением Отчизне...

В апреле 2011 года Ю. Алишев был принят на должность стрелка 4-го стрелкового батальона воинской части № 7534 Караульных войск



МВД Республики Узбекистан. В 2015 году его перевели в часть № 7533. Герой очерка образцово выполнял приказы и распоряжения командиров, подавал пример коллегам, чем снискал уважение.

6 мая 2019 года рядовой Юсуф Алишев во время выполнения служебных задач погиб в результате ДТП, произошедшего в Карши.

Сослуживцы регулярно навещают семью погибшего товарища. Его вдова, Нигора Шокирова, и дочь, Ирода, благодарны воинам за помощь и поддержку.

Абдурасул АБДУНАБИЕВ,
майор.

✓ *Молодежь – наше будущее*

ВЕРНЫЙ ВЫБОР



Старший лейтенант Руслан Нишонбоев о службе в органах внутренних дел мечтал с юности. Окончив Академию МВД Республики Узбекистан и начав работать в следственном отделе при ОВД города Янгиюля, убедился в правильности выбора профессии.

Его наставником был старший следователь подполковник Акмаль Махкамов, сыгравший существенную роль в становлении молодого специалиста. Р. Нишонбоев с благодарностью говорит об учителе, который щедро делился накопленным опытом, поддерживал, направлял.

В минувшем году Р. Нишонбоев был переведен в Департамент обеспечения безопасности на объектах транспорта и туризма МВД Республики Узбекистан старшим инспектором группы правовой статистики.

– Ответственный сотрудник, – отзывается о герое очерка

главный инспектор подразделения майор Наргиза Юлдашова. – Владение несколькими языками позволяет ему качественно и эффективно выполнять возложенные задачи.

Деятельность старшего лейтенанта Р. Нишонбоева связана с системным изучением структуры, динамики, причин и условий совершения преступлений:

– К нам поступает информация о противоправных деяниях по разным категориям. Данные, касающиеся преступлений, направляемые следователями, проходят тщательную проверку. Работа требует большой концентрации внимания, точности.

✓ *Внимание: подросток!*

«ЧТО МОЖЕТ БЫТЬ ВАЖНЕЕ?..»

Когда в 2006 году в Ташкенте открылся Центр оказания социально-правовой помощи несовершеннолетним, руководством было принято решение назначить сюда инспектором профилактики Камолиддина Завкиева – сотрудника с опытом работы, обладающего организаторскими способностями, умеющего на системной основе осуществлять воспитательную деятельность с подростками, в том числе с трудными. Сегодня подполковник К. Завкиев возглавляет данный Центр.



Каждый подросток остро воспринимает несправедливость. Если родители используют лишь суровые методы воспитания, он замыкается в себе. Особого внимания требуют дети из неблагополучных семей, в которых старшие злоупотребляют алкоголем, царит асоциальная среда...
– Важнейшая задача – психологическая поддержка подростка, – говорит Камолиддин Мухиддинович. – Необходимо научить его строить конструктивные отношения с окружающими, налаживать диалог. Деятельность, осуществляемая в Центре, позволяет

несовершеннолетним обрести уверенность, желание идти к цели. Неважно откуда поступил ребенок – с улицы или из семьи, каждому нужно помочь.

Среди поступивших к нам есть сироты или те, кого бросили родители. За время, что дети находятся в Центре, они становятся для нас родными. Наша задача ответственна: помочь трудным подросткам найти правильную дорогу в жизни, укрепить в их сердцах надежду на лучшее. Что может быть важнее?..

Бибигуль МУРТАЗАЕВА.



Ma'naviyat va ma'rifat darsi

TINCHLIKPARVAR O'ZBEKISTONNING TASHQI SIYOSATI

Yangi O'zbekistonning tashqi siyosat borasidagi hamkorligi bugungi kunga kelib sifat jihatdan yuqori bosqichga ko'tarildi. Xorijiy davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik yildan-yilga rivojlanib bormoqda. O'zbekiston qo'shni davlatlar bilan yaqin do'stlik va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratishi natijasida yurtimizning Markaziy Osiyo mintaqasi va jahon miqyosidagi siyosiy o'zni va nufuzi keskin oshdi. Bu tarzdagi amaliy va faol tashqi siyosat hamkorlarimiz soni yanada kengayishiga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining bosh huquqiy asosi Konstitutsiyamizning 17 va 18-moddalarida aks etgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti ekanligi, davlatning tashqi siyosati boshqa davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga, shuningdek, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanishi mustahkamlab qo'yilgan.

Mamlakatimiz Prezidenti «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi» kitobida yurtimiz tashqi siyosatining asl mohiyati haqida so'z yuritib «Tashqi siyosat sohasidagi faoliyatimizni avvalo xalqimiz, Vatanimiz manfaatlarini har tomonlama hisobga olgan holda amalga oshiramiz. Hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaslik, boshqa davlatlarning harbiy bazalari va obyektlari O'zbekiston hududida joylashishiga, shuningdek, harbiy xizmatchilari-mizning mamlakatimiz hududidan tashqarida bo'lishiga yo'l qo'yimaslik, bundan buyon ham davlatimizning qat'iy siyosiy pozitsiyasi bo'lib qoladi» deb ta'kidlagan edi.

So'nggi yillarda tinchlikparvar tashqi siyosatimizda ham muhim transformatsion o'zgarishlar yuz berayotganligini ham aytib o'tish joiz. Ta'kidlash o'rinliki, mamlakatimiz tinchlikparvar tashqi siyosati mintaqada, qolaversa, turli hududlarda yuz berayotgan notinchliklarni, kelishmovchiliklarni tinch, diplomatiya yo'li bilan hal etishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.

O'zbekiston qo'shni Afg'oniston bilan aloqalarni kengaytirishni, mazkur mamlakatdagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etishga qaratilgan xalqaro sa'y-harakatlarda faol ishtirok etishni davom ettirmoqda. O'zbekiston tomoni Afg'oniston iqtisodiyotining qayta tiklanishiga, uning transport, ishlab chiqarish, energetik va ijtimoiy infratuzilmalarini rivojlantirishga ko'mak berishda davom etyapti. O'zbekiston ushbu hududda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi eng muhim subyekt hisoblanadi.



di. 2002-yildan beri ushbu davlatga yurtimiz tomonidan elektr energiyasi yetkazib berilmoqda. «Surxon-Puli-Xumri» yangi elektr tarmog'ining ishga tushirilishi bu sohani yanada jadallashtirdi. Hozirda faoliyat olib borayotgan «Hayraton-Mozori Sharif» temiryo'lini Hirotgacha davom ettirish loyihasi amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy ustuvor yo'nalishi Markaziy Osiyo mintaqasi bo'lib, mamlakatning hayotiy muhim manfaatlarini bu mintaqada bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston Prezidenti ta'kidlaganidek, «O'zbekiston bugungi kunda o'zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Bu har tomonlama chuqur o'ylab tanlangan yo'ldir. Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O'zbekiston ushbu mintaqaning barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo'shnihilik hududiga aylanishidan bevosita manfaatdordir. Tinch-oso-yishta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markaziy Osiyo – biz intiladigan eng muhim maqsad va asosiy vazifadir». Qo'shni davlatlar rahbari bilan muloqotlar davomida Markaziy Osiyo davlatlarini qiziqtiradigan xavfsizlik, iqtisodiyot, investitsiya, turizm, madaniyat, sog'liqni saqlash va ekologiya sohalarida mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik muhim qo'shma qarorlar qabul qilinmoqda.

«2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi»ning uchinchi ustuvor yo'nalishida iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda «daromadi o'rta-chadan yuqori bo'lgan davlatlar» qatoriga kirish uchun zamin yaratish belgilangan. Bu natijalarga erishishda ham davlatimizning tashqi siyosati, tinchlikparvar hamkorlik aloqalarini

bugungidan-da mustahkamlash va kengaytirish zarur hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishish borasida yana shu yo'nalishning o'zida investitsion muhitni yanada rivojlantirishga oid muhim maqsadlar ham belgilangan.

Xususan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish kabi muhim maqsadlar o'rin olgan. Ushbu natijaga erishish uchun investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmini oshirish bo'yicha «pastdan-yuqoriga» tamoyili asosida, yangi tizim yo'lga qo'yilib, 2026-yilgacha xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasi amalga oshiriladi.

Bu natijalarni qo'lga kiritishda yurtimizning tinchlikparvar tashqi siyosati muhim masala sifatida belgilangan. Tashqi siyosat va tashqi investitsion muhitning muhimligini birgina o'tgan yilda yurtimizga jalb qilingan investitsiya miqdori 8 millird AQSH dollaridan oshganligi, tashqi savdo esa davlat yillik yalpi ichki mahsulotining deyarli 25 foiziga teng bo'lib, uning miqdori 19 milliard dollarga yetganligidan anglab olishimiz mumkin.

O'zbekistonning tashqi siyosat strategiyasi har qanday davlat bilan hamkorlikni mustahkamlash, iqtisodiy hamkorlikning barcha jabhalarida keng aloqalarni olib borishga asoslangan. Bu borada mamlakatimizning xalqaro munosabatlardagi teng huquqli subyekt sifatidagi rolini oshirish maqsadida hamkor mamlakatlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan mintaqaviy va global masalalar bo'yicha muvozanatli, doimiy muloqot olib borilyapti. Ular bilan

ikki va ko'p tomonlama uchrashuvlar o'tkazilib, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida aloqalar yanada mustahkamlanmoqda.

Tashqi siyosatimizning yana bir muhim yo'nalishi O'zbekistonning xorijdagi diplomatik vakolatxonalarini moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, chet ellarda mamlakatimizning yangi diplomatik vakolatxonalarini ochish masalasi hisoblanadi. O'tgan davrda yurtimiz tashqi sheriklari tarkibiga Janubiy-g'arbiy Osiyodagi bir qator yetakchi davlatlar, xususan, arab davlatlari va Yevropadagi yangi iqtisodiy hamkorlar qo'shilganligini aytish mumkin.

O'zbekiston 2019-yildan Turkiy davlatlar tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lib kimgach, Yevropadagi yangi hamkor davlat – Vengriya bilan yangi aloqalar, hamkorlik masalalari belgilandi. Ikki davlat rahbarlarining o'zaro rasmiy tashriflari amalga oshirildi. 2021-yil mart oyida Vengriya Respublikasida O'zbekistonning elchixonasi o'z faoliyatini boshladi.

Arab davlatlari va Fors ko'rfazi mintaqasi davlatlari bilan ham hamkorligimiz yangi bosqichga ko'tarilib, bir qator yangi marralarga ham erishib kelinmoqda. Mintaqaning eng iqtisodiy barqaror davlati bo'lgan Qatar davlati bilan so'nggi yillarda yangi hamkorlik bitimlari, o'zaro savdo, tovar ayriboshlash rivoj topib bormoqda. Ushbu aloqalarning amaliy ifodasi sifatida 2023-yilning yanvar oyidan mamlakatimizda Qatar davlatining favqulodda va muxtor elchisi o'z faoliyatini boshladi.

Umuman olganda, ushbu tashqi siyosatdagi yangi ufqlar mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotiga va uning pirovardida xalqimiz farovonligiga omil bo'ladi va yurtimizning dunyodagi nufuzini yanada oshishiga xizmat qiladi.

Asrorjon SATTOROV,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti.





Мард ўғлонлар номи барҳайём

СИНОВЛИ ВА СИЙЛОВЛИ ЙЎЛ

– Баъзан узоқ ўйга толиб, синовли ва сийловли умр соҳибаси эканлигимни ич-ичимдан ҳис этаман, – дейди Транспорт ва туризм объектларида хавфсизликни таъминлаш департаменти ходимаси, сафдор Шоҳида Жаримбетова. – Тақдирнинг синови шуки, мен кўнгил қўйган мард ва жасур инсон билан атиги олти ой турмуш кечирдим. Сийловлиси, ана шу қисқа, аммо бахтга лиммо-лим оиладан, турмуш ўртоғимдан, кўзимнинг оқу қораси, қувончим, умидим – ўғлим Ёдгор бор. У ҳозирда ИИБ Академияси 2-босқич курсанти.


Фарзандимнинг феъл-атворидаги дадиллик, отасига икки томчи сувдек ўхшаш қош-кўзлари, барваста бўй-бастига боқиб, ҳаёт мендан бир Ватан посбонини тортиб олиб, иккинчи мард ўғлон билан бағримни тўлдирганига амин бўламан ва шукр қиламан. Ўғлимнинг беғубор кулгулари, ёқимли ҳазиллари, меҳрибонлиги ва самимиятида отасининг инсоний фазилатларини кўраман.

...2002 йил 4 март, ярим тун. Кира қилаётган ҳайдовчининг машинасига икки йўловчи чиқади. Улар манзилга етиб борганда, хизмат ҳақини бериш ўрнига, ҳайдовчига пичоқ ўқталиб, уни жароҳатлайди ва пул, қимматбаҳо буюмларини олиб, кўздан ғойиб бўлади. Ўзига келган ҳайдовчи яқин орадаги йўл ҳаракати хавфсизлиги масканига бориб, хизмат вазифасини ўтаётган ходимлардан ёрдам сўрайди.

Тошкент шаҳар ИИББ ЙПХ инспектор-кинологи, катта сержант Қидирбек Нишонов ва воқеадан тўлиқ хабар топган бир гуруҳ ходимлар хизмат ити ёрдамида жиноятчиларни излашга киришишади. Кўп ўтмай жиноятчилар яширинган жой аниқланади. Иложсиз қолган жиноятчилар пичоқ билан осойишталик посбонларига ташланади. Қисқа олишувдан сўнг улар қўлга олинади. Бироқ Қидирбек кўкрак қафасидан олган оғир жароҳати туфайли воқеа жойида вафот этади.

Кейинчалик қаҳрамонимизнинг укаси Баҳром Нишонов, аёли Шоҳида Жаримбетова шу шарафли йўл давомчиларига айланади. Унинг ўғли Ёдгор Нишонов ҳам бугун ИИБ Академиясининг тезкор қидирув йўналишида таҳсил олаётган зукко ёшлардан бири. Таълим даргоҳи байроқдор гуруҳи аъзоси.

– Мен учун ўша вақтлар ниҳоятда оғир бўлган, – дейди Шоҳида Жаримбетова. – Аммо ҳар дақиқада қайнонам Аноргул аянинг дарди меникидан кам эмаслигини ҳис этиб турардим. Ўғлим отаси вафот этганидан тўрт ой ўтиб дунёга келган. Ёдгор бизнинг ягона юпанчимизга айланган. Хизматга киришни таклиф қилишганда ҳам, энг биринчи қўллаб-қувватлаган қайнонам бўлган. Қўлимда ёш болам бор, десам, улар ҳамиша ёнингдаман, дея менга кўмаклашган. Турмуш ўртоғимнинг ҳамкасблари ҳам доим ёрдамлашган. Ички ишлар органларида хизмат бошлаганимга ҳам ўн олти йил бўлибди. Шу йиллар ичида турмуш ўртоғим шайни, унинг хизмат бурчига садоқатини туйганим ҳолда, устимдаги либосга доғ туширмасликка, менга билдирилган ишонччи оқлашга ҳаракат



қилиб келяпман. Соҳанинг ўзига яраша машаққати ва шарафини фидойиликда кўраман. Ўғлимга ҳам шу фазилат юқишини жуда хоҳлайман.

Ёл-юрт осойишталигини таъминлашдек шарафли хизматида содиқ қолиб, қуролланган жиноятчиларни қўлга олиш вақтида кўрсатган мардлиги ва жасорати учун катта сержант Қидирбек Нишонов вафотидан сўнг Президентимиз фармони билан тақдирланган. У таълим олган Тошкент вилояти Бўка туманидаги мактабга фидойи ходимнинг хотирасини абадийлаштириш мақсадида ёдгорлик ўрнатилган.

Қидирбек Нишонов ўзи меҳр қўйган касбга садоқатини исботлаб, бу дунёни тарк этган бўлса-да, унинг жонкуярлиги, жасорати юр-

тимизда отган ҳар тонгни беминнат нурлари билан сийлаб, мунаввар этган саховатли куёш мисоли қалбимизни ҳароратлантириб тураверади. Ёдгорбекдек зурриёти, давомчиси тимсолида эса ҳаётимизда яхшиликлар, эзгуликлар ҳимоячиси бўлиб кўз очаверади.

Гулноза ТУРҒУНБОЕВА,
«Postda» мухбири.



Аёл ва жамият

ОИЛА ТИНЧ БЎЛСА...

Жарқўрғон туманидаги «Янгиобод» маҳалласида яшовчи Ф.Бозорова адашиб жиноятга қўл урди. Шундан сўнг Жиноят кодексининг 273-моддаси 5-қисми билан айбланиб, тегишли муддатга озодликдан маҳрум қилинди. Рамазон ҳайити арафасида давлатимиз раҳбари фармонида асосан, муддатидан олдин жазодан озод этилди. Аёл оиласи бағрига қайтди.



Энди аёл фарзандларининг келажак учун ҳалол меҳнат қилишга аҳд этди. Унинг бу истагини фаҳмлаган туман ИИБ ХПБ хотин-қизлар масалалари бўйича катта инспектори, подполковник Юлдуз Имомова маҳалла раиси ҳамда туман оила ва хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш бўлими раҳбарининг кўмаги билан аёлни иш билан банд қилишга киришди. Натижада Ф.Бозорова туман уй-жой коммунал хизмати «Янгиобод» маҳалласи инспектори сифатида иш бошлади. Аёлнинг ҳаёти изга тушди.

– Туманимиздаги 66 та маҳаллада 112 мингдан ортиқ хотин-қизлар истиқомат қилади, – дейди подполковник Юлдуз Имомова. – Ажрим ёқасида

турган оилалар, низоли хонадонларнинг муаммоларини ўрганиш, оилаларни сақлаб қолиш учун ҳамкор ташкилотлар билан бирга ҳаракат қияпмиз. Олиб борилаётган профилактик суҳбатлар, берилаётган ҳимоя ордерларининг натижаси сезилмоқда. Мисол учун, жорий йилнинг биринчи чорагида 13 та ҳимоя ордери берилди. Демак, тазйиқ ва зўравонлик қонунларимизда тақиқланганини, давлат ҳамиша аёлларни ўз ҳимоясига олишини кўпчилик тушуниб етаяпти.

Инспекторнинг саъй-ҳаракати сабаб ҳудудда хотин-қизлар ўртасидаги жиноятчилик ҳам ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 60 фоизга камайди. Албатта, бу катта меҳнат ва тўғри

ташкил қилинган тарғибот самарасидир.

Қолаверса, ҳудудда шаръий никоҳлар сонини камайтириш мақсадида ҳар бир хонадондаги аҳвол ўрганилиб, хотин-қизларни қонуний никоҳдан ўтказишга эътибор қаратилмоқда. Чунки қонуний никоҳдан ўтган оилада аёл ўз ҳақ-ҳуқуқларига тўлақонли эга бўла олади.

Аёл фақат тинч-осуда хонадондагина бахтни ҳис қилади. Бугун турмуш ташвишлари сабаб нотинчлик бўлаётган оилаларда осудалик ҳукм суриши учун хотин-қизлар масалалари бўйича инспекторлар астойдил меҳнат қилаётир.

Феруза РАҲМОНҚУЛОВА,
«Postda» мухбири.
Сурхондарё вилояти.

ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА МИРОЛЮБИВОГО УЗБЕКИСТАНА

Узбекистан проводит открытую, взаимовыгодную и конструктивную внешнюю политику. Современный внешнеполитический курс республики строится с учетом динамично меняющейся ситуации в мире и регионе, а также масштабных внутренних преобразований.

Целью внешней политики Узбекистана является укрепление независимости и суверенитета страны, продвижение национальных интересов, поддержание мира, повышение авторитета республики среди других стран. Внешняя политика республики соответствует общепризнанным нормам и принципам международного права, включая Устав ООН, Всеобщую декларацию прав человека, Декларацию о принципах международного права и Хельсинкский Заключительный акт Совещания по безопасности и сотрудничеству в Европе.

Внешнеполитическая стратегия Узбекистана направлена на обеспечение динамичного и устойчивого политического, социально-экономического, светского и демократического развития страны. Важнейшая задача – дальнейшее укрепление отношений добрососедства и стратегического партнерства, прежде всего со странами Центральной Азии.

Президент Узбекистана уделяет особое внимание эффективности внешней политики, способной обеспечить необходимые условия для реализации масштабной программы реформирования и модернизации всех сфер жизнедеятельности общества и государства.

В условиях высокой динамики позитивной трансформации Узбекистана, перехода к новому этапу формирования демократического правового государства с развитой рыночной экономикой руководству страны внимание уделяется последовательному укреплению благоприятной внешней среды для устойчивого внутреннего развития, эффективному продвижению национальных интересов на международной арене и поступательному повышению конкурентоспособности отечественной экономики.

Первоочередными задачами сегодня являются консолидация и мобилизация всех внутренних и внешних ресурсов для безусловного достижения национальных целей развития. Концепция внешнеполитической деятельности указывает



на приверженность республики избранному внешнеполитическому курсу, благодаря которому Узбекистан добился значительных успехов.

Узбекистан как равноправный субъект международных отношений проводит активную внешнюю политику на региональном и глобальном уровнях, развивает взаимовыгодные отношения с зарубежными партнерами.

Это признается международными экспертами и наблюдателями. Внешняя политика республики базируется на таких принципах, как: верховенство национально-государственных интересов при всемерном учете взаимных интересов; равноправие и взаимная выгода, невмешательство во внутренние дела других государств; открытость для сотрудничества вне зависимости от идеологических воззрений, приверженность общечеловеческим ценностям, сохранению мира и безопасности; развитие внешних связей как на основе двусторонних, так и многосторонних соглашений.

Одной из ключевых целей внешнеполитической деятельности Узбекистана является формирование вокруг страны пояса мира, стабильности и безопасности.

Именно в последние годы, благодаря инициативам главы нашего государства, которые были активно поддержаны руководителями соседних стран, между президентами укрепился политический диалог и личное доверие, налажены консультативные встречи глав государств Центральной Азии. Это позволило вывести на качественно новый уровень отношения сотрудничества Узбекистана со странами Центральноазиатского региона.

В период коренных преобразований Президент Шавкат Мирзиёев определил важнейшие цели и задачи внешней политики, которые отражены в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы. Документом определены следующие приоритеты:

- повышение роли страны в качестве равноправного субъекта в международных отношениях;
- выведение на высокий уровень тесного сотрудничества в области безопасности, торгово-экономической, водной, энергетики, транспорта и культурно-гуманитарной сферах в Центральной Азии;
- дальнейшее развитие отношений с нашими традиционными партнерами, расширение географии внешних связей, усиление экономической дипломатии;
- повышение активности Узбекистана в деятельности органов и учреждений ООН, глобальных и региональных экономических, финансовых и гуманитарных организациях;
- углубление процессов вступления во Всемирную торговую организацию и интеграции с Евразийским экономическим союзом;
- повышение эффективности подачи информации, направленной на улучшение имиджа страны в мировом сообществе;
- совершенствование нормативно-правовой базы внешнеполитической и экономической деятельности и договорно-правовой базы международного сотрудничества;
- совершенствование системы оказания услуг дипломатическими представительствами и консульскими учреждениями Республики Узбекистан гражданам Узбекистана за рубежом.

Внешнеполитическая стратегия Узбекистана отражает одну из ключевых мировых тенденций: превращение регионального сотрудничества в фактор

экономического роста, модернизации и устойчивого развития государств, укрепления готовности отвечать на вызовы современности.

В условиях геополитической напряженности в мире, когда доверие между странами и народами является важнейшим условием обеспечения безопасности и прогресса, Узбекистан укрепляет внешнеполитические связи. Ведь на основе дружбы, взаимопонимания обеспечивается стабильность и сплоченность государств, что способствует благосостоянию людей, созданию широких возможностей для сотрудничества между государствами-партнерами. Именно в силу данных обстоятельств закрепление в ст. 18 Конституции страны положения, что Республика Узбекистан осуществляет миролюбивую внешнюю политику, направленную на всемерное развитие двусторонних и многосторонних отношений с государствами и международными организациями, является весьма значимым.

Еще один принцип, который стал преобладать в реформированной под руководством главы нашего государства внешней политике, – гуманизация внешнеполитической деятельности. Это видно на примере возросшей заботы государства об интересах граждан Узбекистана за рубежом, в том числе посредством оказания соотечественникам государственных услуг и привлечения к реализации социально-экономических и культурно-гуманитарных проектов.

В целом за последние годы наша страна добилась на международной арене качественного сдвига. Узбекистан – ответственный и предсказуемый партнер, готовый в конструктивном и открытом диалоге решать самые насущные проблемы как региональной, так и глобальной повестки дня.

Азиза БОХОДИРОВА,
капитан.



Оталиқдаги мактаб

Эл орасида бу маҳаллани «Олтмиш икки» дейишади. Ҳозирги номи бинойидек — «Ўзбекистон тўқинчилиги». Маҳалла туманинг энг четида, Сирдарёнинг Жиззах билан чегарадош ҳудудда жойлашган. Шу боис анча вақтгача эътибордан четда қолган. Маҳаллада жойлашган 20-умумтаълим мактабига ҳам узоқ йиллар туман раҳбарлари ташриф буюрмаган эди. Лекин кейинги йилларда вазият буткул ўзгарди. Қарийб 250 нафар ўқувчи таълим оладиган мактаб туман ИИБ томонидан оталиққа олинди.



Ўтган уч йил давомида мактабнинг кириш қисми таъмирланди. Бетон йўлаклар барпо этилди. Мактаб ҳовлиси ободонлаштирилиб, юзлаб кўчатлар экилди. Анча йиллардан бери мактаб кутубхона фондида танқислик кузатиларди. Туман ИИБ ташаббуси билан мингга яқин бадий китоб совға қилинди. Бунинг учун ҳомийлар, маҳаллий бюджет маблағлари жалб қилинди. Ўтган йили ҳомийлар ва маҳаллий бюджет маблағлари ҳисобидан мактабга етти

миллион сўмлик қурилиш материаллари етказиб берилди. Натижада ҳар бир синф хонаси сифатли таъмирланди. — Таъмирлаш ишлари мактабимизда таълим-тарбия сифати ва самарадорлигини оширишга, педагоглар фаолияти учун кенг имкониятлар яратилишига ҳамда ўқувчи-ёшларнинг пухта билим олиб, жисмонан соғлом вояга етишига хизмат қилмоқда, — дейди мактабнинг Маънавий-маърифий ишлар бўйича ди-

ВАЗИЯТ БУТКУЛ ЎЗГАРДИ

ректор ўринбосари Самад Сулаймонов. — Яратилган шароит ва қулайликлар ёшларга маъқул бўлмоқда. Кутубхонамиз ҳам китобсевар ўқувчилар билан гавжум бўлиб қолди. Мактаб жамоаси номидан туман ИИБ ходимларига миннатдорлик билдираимиз.

Туман ИИБ томонидан ўқувчилар ўртасида маънавий-маърифий тадбирлар ва спорт мусобақалари ташкил этилиши анъанага айланган.

Шерзод ШЕРБОЕВ,
Ховос тумани ИИБ
ВЕМБ катта инспектори,
капитан.



Профилактика инспекторлари фаолиятдан



МАШХУРБЕКНИНГ ОРЗУСИ

Асака тумани Андижон вилоятининг аҳоли энг зич яшайдиган ҳудуди. Бу ерда 325 мингдан ортиқ аҳоли истиқомат қилади.

– Фуқароларнинг тинчлик-осойишталигига 77 нафар ҳудудий профилактика инспектори масъул, – дейди туман ИИБ ҚПБ бошлиғи, подполковник Нодирбек Холматов. – Улар ўз зиммасидаги масъулиятли вазифани талаб даражасида бажариши учун бор билим ва маҳоратини ишга соляпти.

Капитан Машхурбек Ҳақимов энг намунали профилактика инспекторларидан бири. У 2015 йилда хизматга қабул қилиниб, Андижон туманининг «Чем» маҳалласига профилактика инспектори этиб тайинланган эди. «Хакент» кўрғони ИИБ бошлиғи, майор Жасурбек Худойбердиев мураббий сифатида ёш ходимга соҳанинг паст-баландини ўргатди, қийин дамларданундан кўмагини аямади.

Орадан икки йил ўтиб, қаҳрамонимиз Асака туманига юборил-

ди. Туманининг «Бирлик», «Барака», «Нурафшон» маҳаллаларида профилактика инспектори сифатида фаолият юритди. 2022 йилдан эса профилактика катта инспектори лавозимига тайинланиб, Асака шаҳри марказида жойлашган Беруний маҳалласига бириктирилди.

– Ҳудудда 4 минг нафардан зиёд аҳоли истиқомат қилади. Аҳоли асосан «UzAuto Motors» автомобиль заводида, фермер хўжаликларида меҳнат қилиша-

ди, хусусий тадбиркорлик билан шуғулланишади, – дейди капитан Машхурбек Ҳақимов. – Маҳалла фуқаролар йиғини раиси Абдулбоқи Мўйдинов, ҳоким ёрдамчиси Шавкатбек Фозилов, ёшлар етакчиси Ботиржон Усмонов, хотин-қизлар фаоли Дилоромхон Холмирзаева билан уйма-уй айланамиз, профилактик суҳбатлар ўтказамиз. Фуқаролар бирор масала бўйича мурожаат этишса, ёрдам бериш чораларини кўра-

Профилактик тадбирлар, жамоат тартибини сақлашда кенг жамоатчиликнинг фаол иштироки ҳамда видеокузатув камералари ўрнатилгани натижасида йил бошидан буён ҳудудда бирорта ҳам жиноят содир этилишига йўл қўйилмади.

Энди қаҳрамонимизнинг ўзи ҳам устоз мақомига етишди. Қўшни маҳаллаларда хизмат ўтаётган шогирдлари профилактика инспекторлари катта лейтенант Бунёд Халилов, лейтенантлар Элмурод Қосимов ва Абдулҳамид Шарипов маслаҳат, йўл-йўриқ сўраб, тез-тез унга мурожаат этиб туришади.

Капитан Машхурбек Ҳақимов суҳбат давомида дилининг тўридаги орзуси ҳақида гап очиб қолди. «Профилактика хизматининг сир-асрорларини ўрганишга ҳаракат қилипман, – деди у. – Ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишда, жамоат тартибини сақлашда, ёшларни тарбиялашда оқсоқолларнинг, кенг жамоатчиликнинг таъсири беқиёсигини яхши тушунаман. Лекин ич-ичимдан келгусида жиноят-қидирув соҳасида ишлашни жуда-жуда хоҳлайман...»

Борис КЛЕЙМАН,
«На посту» мухбири,
Андижон вилояти.



■ Samarqand viloyati



Ma'naviyat oyligi



Buyuk adiblar, allomalar, shoirlarning asarlari faqat chiroyli so'zlari, tilining jozibaliligi bilangina emas, balki mardona ruhi bilan go'zal va qimmatlidir. Ulug' adiblar asarlaridagi ma'nolarni bir o'qishda ilg'ab olish mushkul, buning uchun ularning ijodini chuqur o'rganish lozim bo'ladi, degan edi adabiyotshunos olimlardan biri.

Narpay tumani IIB xodimlari o'rtasida o'tkazilgan she'riyat kechasi ham ma'naviy mayoq tadbiri bo'ldi, desak, aslo mubolag'a emas.

Unda xodimlar elimizning taniqli shoirlari va ularning ijodi haqidagi bilimlarini namoyish etish bilan bir qatorda, Vatani, ona, muhabbat mavzusidagi she'rlaridan namunalar o'qishdi.

■ Toshkent shahri

IIV «Jar» sog'lomlashtirish sport majmuasida poytaxt IIBB da faoliyat yuritayotgan ayol xodimlar o'rtasida «Zakovat» intellektual musobaqasi bo'lib o'tdi. Unda 16 ta jamoa ishtirok etib, tarixga oid savollarga javob berdilar, shuningdek, IIV normativ-huquqiy hujjatlarini qay darajada bilishlarini namoyish etishdi.

O'yin qizg'in bahslar, yorqin his-tuyg'ular bilan kechdi. Savollarga tezkorlik bilan javob bergan, ishtirokchilar o'z bilimini, chegaralangan vaqt

ichida «aqliy hujum» sharoitida tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini ham namoyon etishdi.

Musobaqa yakuniga ko'ra, Bektemir tumani IIOFMB jamoasi birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Ikkinchi o'rin Sergeli tumani IIOFMB jamoasiga, uchinchi o'rin esa IIV 1-sonli Toshkent akademik litseyi jamoasiga nasib etdi.

Tadbir so'ngida g'oliblarga diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.



■ Республика Каракалпакстан

Военнослужащие воинской части № 7261, расположенной в городе Нукусе, и члены их семей посетили Каракалпакский государственный академический музыкальный театр им. Бердаха.



Здесь был представлен спектакль по случаю 94-летия со дня рождения народного поэта Узбекистана и Каракалпакстана Ибрайыма Юсупова, внесшего огромный вклад в дело сохранения культурно-духовного наследия народа, в развитие национальной литературы.

Аббос БЕКНАЗАРОВ,
капитан.



■ Jizzax viloyati

G'allaorol tumani soha faxriylarining tajribasiga tayanish, ularga ehtirom ko'rsatish bilan bog'liq ko'p yillik ezgu an'ana mavjud. Tez-tez ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, «Uch avlod uchrashuvi» tashkil etiladi. Bu jarayonda Erjigit Toshtemirov, Ahmadxon Shukurov, Furqat Malikov, Sarimsoq Yo'ldoshev, Ahmadxon Obidxonov, Qahramon Hakimov kabi iste'fodagi ofitser va serjantlar yosh xodimlarga qonunbuzarliklarning oldini olish, jinoyatlarni fosh etish, jamoat

xavfsizligini ta'minlash borasidagi tajribalari bilan o'rtoqlashadilar.

Tumanimizda 76 nafar iste'fodagi ichki ishlar organlari xodimlari istiqomat qiladi. Ularning eng ibratlilari tuman ichki ishlar bo'limining yosh xodimlariga birlashtirilgan. Shuningdek, faxriylar o'z yashash joylarida huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olishda profilaktika inspektorlariga yaqindan yordam berishayotir.

Qilichbek O'SAROV,
podpolkovnik.



■ Qashqadaryo viloyati

Koson tumani IIBda minifutbol bo'yicha musobaqa o'tkazildi.

Musobaqa murosasiz va qizg'in bahslarga boy tarzda o'tdi. Yakuniy natijalarga ko'ra, tuman IIB HPB profilaktika inspektorlaridan iborat jamoa g'olib deb topildi. Inspek-

tor-psixologlardan tuzilgan jamoa ikkinchi, tezkor-qidiruv xizmati xodimlaridan iborat jamoa uchinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

G'olib jamoalar kubok, faxriy yorliq va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

«СЛУЖИТЬ ПРИШЛОСЬ В НЕПРОСТОЕ ВРЕМЯ»

Сотрудники подразделений специального назначения имеют репутацию высококвалифицированных и обученных бойцов, преданных служебному долгу, по максимуму выполняющих задачи, которые ставит перед ними государство.

После окончания Андижанского государственного педагогического института Анвар Ахмедов работал методистом, а потом директором областной юношеской школы высшего спортивного мастерства. В 1989 году по зову сердца пришел служить в органы внутренних дел. Был командиром конного взвода батальона патрульно-постовой службы, затем командиром отряда подразделения ОМОН. В 1990 году его назначили командиром роты специ-



ального подразделения. Перед выходом на заслуженный отдых в 2005 году майор А. Ахмедов являлся командиром батальона

ППС УППСиООП УВД Андижанской области.

– С благодарностью вспоминаю наставников, – говорит майор в отстав-

ке Анвар Ахмедов. – Это полковник Алишер Ашуров, подполковники Давронбек Юсупов и Дилбар Нишонов. Они щедро делились зна-

ниями и опытом, помогли в трудную минуту. Служить пришлось в непростое время... Начало 90-х ознаменовалось всплеском противоправных деяний. Бойцы специальных подразделений, рискуя жизнью, боролись с преступностью.

За годы службы ветеран воспитал ряд достойных учеников, таких как подполковники Дониёр Юлбарсов, Рустамжон Джалолдинов, майор Юсупжон Якубжанов.

И сегодня А. Ахмедов находит время для встреч с бойцами мобильного отряда оперативного назначения, в ходе которых рассказывает о том, как в 90-е сотрудники специальных подразделений противостояли преступности, как проводили операции по задержанию особо опасных рецидивистов, торговцев наркотиками, экстремистов.

Борис КЛЕЙМАН,
корреспондент
«На посту».

Андижанская область.

✓ Актуально

ОДНО НАЖАТИЕ КЛАВИШИ...

Киберпреступники придумывают все более изощренные схемы отъема денег. Как показывает статистика, на их уловки попадает немало граждан. Специалисты по борьбе с киберпреступностью отмечают, что ими зафиксировано немало случаев, когда деньги с карт снимаются не сразу после регистрации на сомнительных сайтах, а через три месяца, полгода и даже через год.

– Это эффект замедленного действия. Злоумышленник набирает карты и ждет удобного момента, – говорит начальник отдела по борьбе с киберпреступлениями УВД Самаркандской области капитан Азамат Юлдашев. – Немного объясню, как в основном работают мошенники. Вы заходите на сайт, который, к примеру, обещает выдать беспроцентный кредит, вводите номер своей карты. В этот момент злоумышленник открывает приложение мобильного банкинга и вводит туда новую карту – вашу. Затем жертва, получив сообщение с пятизначным кодом, вводит его на лже-сайт. Этот код также вводит и злоумышленник, в результате он получает доступ в ваш личный кабинет.

Популярность набирают и другие схемы, при которых мошенник получает доступ к Telegram-аккаунту. Заполучив аккаунт, он отправляет знакомым от вашего имени ссылку примерно с таким текстом: «Участвую в конкурсе, проголосуй за

меня». Текст может быть как на русском, так и на узбекском языке. Получив контроль над аккаунтом, мошенник также может шантажировать вас вашими же фотографиями и видео, угрожая разослать их контактам, а также разместить в соцсетях.

Немало обращений в отдел по борьбе с киберпреступлениями поступает и от граждан, пользующихся сервисом объявлений OLX. Жертвами кибермошенников становятся не только лица, желающие что-либо продать, но и приобрести.

– К сожалению, еще много доверчивых людей, которые не задумываясь фотографируют чеки, банковские карты, документы и отправляют их посторонним, – отмечает капитан А. Юлдашев. – Проанализировав статистику киберпреступлений, хочется отметить, что в 90 % случаев кибермошенники – молодые люди до 30 лет, а вот их жертвами, как правило, становятся лица постарше. Нередки сегодня и случаи кибермошенничества среди



несовершеннолетних. Не так давно 16-летний подросток из Каттакургана обманул 14-летнего жителя Ташкента на 4,5 тысячи долларов. Потерпевший перевел данную сумму с банковской карты родителей на карту каттакурганца в надежде приобрести аккаунт в игре PUBG.

– Опыт зарубежных стран показывает, что киберпреступность будет и дальше развиваться, если не повысится цифровая грамотность граждан, – подытоживает специалист. – В этих целях в области намечено провести конкурсы среди слушателей IT-парков и студентов

Самаркандского филиала Ташкентского университета информационных технологий, запустить среди сотрудников различных организаций, представителей махаллей челлендж, призывая граждан к бдительности. Запланированы агитационные мероприятия в школах, на предприятиях, рынках. Цель – охватить как можно больше граждан, рассказать им об угрозах, существующих в интернет-пространстве.

Замира БАЛТАЕВА,
корреспондент «На посту».
Самаркандская область.



Тўйхат

САБР ЕТКАЗГАН САОДАТ

Бухоро шаҳрида таваллуд топган Қодир ака болалигида юрт ҳимоячиси бўлишни орзу қиларди. Мактаб давриданоқ синфдош қизларнинг, ўзидан кичикларнинг ҳимоячисига айланган қаҳрамонимиз ўшандаёқ осойишталик посбони бўлишни дилига тукканди.

Етуклик шаҳодатномасини қўлга олгач, Қишлоқ хўжалиги институтига ҳужжатларини топширди. Имтиҳонлардан муваффақиятли ўтиб, ўрмон хўжалиги муҳандиси факультетига ўқишга қабул қилинди. Бўш пайтлари юнон-рум кураши тўғраида фаол қатнашиб, мусобақаларда фаол қатнашиб, фахрли ўринларни қўлга киритиб келди.

Олийгоҳ йўлланмаси билан Ўзбекистон Темир йўллари Бухоро вилояти бўлимида Ихота дарахтларини ҳимоя қилиш дистанцияси Когон участкаси бошлиғи вазифасида фаолиятини бошлади. Бироқ осойишталик посбони бўлиш истаги бир кун ҳам ёдидан кўтарилмади. Яна спорт билан, юнон-рум кураши билан мунтазам шуғулланди. Қолаверса, Когон шаҳар марказида тўгарак очиб, ўзи мураббийлик қилди. Тўрт йил ёшларни курашга чинақтириб, чемпионлар этиштирди.

Бухоро шаҳрида жойлашган 18-сонли қаттиқ режимли ахлоқ тузатиш меҳнат колониясида ишлаб чиқариш технологияси бўлими бошлиғи лавозимида хизмат фаолиятини бошлаган Қ. Ҳайитовни 1988 йили Қарши шаҳар ИИБ Ахлоқ тузатиш колонияси бўлимида ишлаб чиқариш бўйича бошлиқ ўринбосари лавозимида ўтказишди. Кейинчалик вилоят ИИБ раҳбарияти унинг талабчанлиги, ишчанлигини эътиборга олиб, Жондор тумани ИИБ Паспорт столи бошлиғи этиб тайинлади. ИИБ Академиясининг сиртки бўлимини тамомлаган, Қ. Ҳайитов кейинчалик Вояга етмаганлар билан ишлаш инспекцияси ҳамда вилоят ИИБ Жиноятчиликнинг олдини олиш бўлими Ахлоқ милицияси (кейинчалик Одам савдоси бўлими бўлди) бошлиғи лавозимларида самарали хизмат кўрсатди. 2004 йилда обрў-эътибор билан подполковник унвонида пенсияга кузатилди.



Халқимиз шогирдсиз устани мевасиз дарахтга қиёслайди. Шу жиҳатдан олганда, Қодир Ҳайитов – сермева дарахт. У мураббийлик қилган ёшларнинг кўпчилиги ҳалол меҳнатлари ва шарафли хизматлари билан эл назарига тушган. Чунончи, шогирдлари орасида фарзандлари ҳам бор. Қодир ака раҳматли умр йўлдоши Муний Акмедзянова билан биргаликда беш ўғил-қизни тарбиялаб вояга етказди. Барчасини олийгоҳларда ўқитди, уйли-жойли қилди. Ўғилларининг иккитаси ота изидан борди. Қолганлари ҳам юрт қорига яраб келишяпти.

Тўнғичи – Рустам Ҳайитов Миллий гвардияда бўлим бошлиғи, унвони полковник. Яна бир ўғли – Нодиржон

Ўзбекистон нефть-газ компаниясининг хориж инвестицияси билан ишлаш бўлими бошлиғи, оиланинг ягона қизи – Нодирабегим Бухоро давлат университети рус филологияси кабинет мудири, Ўқтамжон Мудофаа вазирлигининг Ўта муҳим объектларини қўриқлаш бошқармаси бошлиғи, унвони – подполковник ва кенжаси Анваржон вилоят ҳокимлиги тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш бўлими бош етакчиси сифатида фаолият юритяпти. Қодир аканинг марҳума рафиқаси ҳам 32 йил бир жойда, яъни Жондор тумани ИИБда иш юритувчи лавозимида ишлаган эди.

– Туманимизда 520 нафар фахрий бор, – дея сўзини

давом эттирди истеъфодаги подполковник Қ. Ҳайитов. – 52 та маҳалланинг ҳар бирига тажрибали фахрийларни бириктирганмиз. Улар профилактика инспекторларига нафақат йўл-йўриқ кўрсатишади, балки оила ва турмушга оид низоли масалаларни ҳал этишда, тадбиркор бўлмоқчи бўлган фуқароларга ҳуқуқий маслаҳат беришда жонбозлик кўрсатиб келишмоқда.

Қодир Ҳайитов Бухоронинг фахри, фидойи фарзанди. Эли суйган, юрти эъзозлаган, хизматлари муносиб тақдирланган инсон. Ички ишлар органларининг фахрий ходими ҳамда «Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш учун» медали соҳиби. Дарвоқе, Қодир Сайлиевич яқинда 70 ёшни қаршилади. Меҳмонлар азим Тошкенту кўҳна Бухородан ёру жўралари, яқинлари, шунингдек, Мудофаа Вазирлиги, вилоят ва туман ҳокимлиги вакиллари, вилоят ҳамда туман ИИБ раҳбарияти ташриф буюриб, Қодир аканинг юз ёшида ҳам ана шундай юзлашиб ўтириш насиб этишини тилаб, зар тўн кийдиришди.

Мирзоқул АҲАДОВ,
«Postda» мухбири.

Бухоро вилояти.



Хизматларда

ТЕМИРЙЎЛЛАРДА ХАВФСИЗЛИК – УСТУВОР ВАЗИФА

Хоразм вилояти Транспортда хавфсизликни таъминлаш бошқармаси ходимлари белгиланган ҳудудларда жиноят ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш, йўловчилар хавфсизлигини таъминлаш, товар-моддий бойликларининг талон-торож қилинишига йўл қўймаслик учун мавжуд имкониятлардан самарали фойдаланишмоқда.

Жорий йилнинг ўтган даврида хизмат ҳудудларда жиноятчилик камайишига эришилди. Хусусан, ўта оғир турдаги жиноятлар 50 фоизга, оғир турдаги жиноятлар 43 фоизга камайди.

Турли ҳуқуқбузарликлар содир этган 542 нафар фуқарога нисбатан белгиланган тартибда маъмурий баённомалар расмийлаштирилди. Назорат остидаги ҳудудларда 19 нафар вояга етмаган мақсадсиз юргани аниқланиб, улар тилхат орқали ота-оналари ёки уларнинг ўрнини босувчи шахсларга топширилди. Ҳуқуқбузарлик содир қилган 1 нафар ўсмирнинг ота-онасига нисбатан маъмурий чора кўрилди.

Профилактик тадбирлар олиб борилаётганига қарамасдан, темирйўлларнинг белгиланмаган жойидан кесиб ўтиш, вояга етмаганлар томонидан вагон ойналарига тош отиш

ҳамда темирйўлга яқин ҳудудларда чорва молларини боқиш каби ноҳуш ҳолатлар ҳамон учрамоқда.

Жорий йилнинг 24 январь куни Урганч туманидаги «Каттабоғ» маҳалласи ҳудудидан ўтувчи «Хива – Урганч» темирйўлининг 410-километри оралиғида ҳаракатланаётган йўловчи поездининг 9-вағони ойнаси қаттиқ жисм тегиши оқибатида сингани аниқланди. Ҳолат юзасидан тезкор суриштирув тадбирлари олиб борилиб, қонунбузарларга нисбатан белгиланган тартибда чоралар кўрилди.

– Темирйўлга яқин ҳудудларда 98 та маҳалла, 45 та ўқув муассасаси ҳам мавжуд. – дейди вилоят ТХТБ бошлиғи, подполковник Абдулла Абдуллаев. – Темирйўлларнинг аҳоли зич жойлашган ҳудудларидаги пиёдалар ўтиш жойларига огоҳлантирувчи белгилар, қўриқланмайдиган кесишмаларга эса огоҳлантирувчи чироқлар ўрнатилди. Профилактик тадбирларда хавфсизликни



таъминлаш, ҳуқуқбузарликларга чек қўйиш каби масалаларга алоҳида эътибор қаратиляпти. Натижада ҳудудлар хавфсизлиги таъминланиб, ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олди олинмоқда.

Шунингдек, шахсий таркибнинг касбий ва жанговар маҳоратини ошириш, маънавий жиҳатдан етук бўлишига аҳамият қаратилмоқда. Шу боис ўтказилаётган маънавий-маърифий тадбирларда шахсий таркиб ўртасида хизмат интизоми ва қонунийликни мустаҳкамлаш,

маънавий-руҳий муҳитни яхшилаш, ходимларни ижтимоий-ҳуқуқий ҳимоя қилиш, мавжуд муаммоларига ечим топиш каби масалаларга жиддий эътибор берилмоқда. Бу каби саъй-ҳаракатлар хизмат самардорлигини ошириш билан бирга, олис манзилларга чиққан йўловчи ва юк поездларининг хавфсизлигини таъминлашда ҳам муҳим аҳамият касб этмоқда.

Худойберган ЖАББОРОВ,
«Postda» мухбири.

Хоразм вилояти.



Мулоҳаза

«ПЎШТ, САМОКАТ КЕЛЯПТИ!»

Сўнги пайтларда пойтахтимизда электр самокатларни ижарага берувчи кикшеринг хизмати ривож топиб борапти. Бу, қувонарли воқеа, албатта. Чунки натижада қанчалаб одамларнинг узоғи яқин бўлади. Жамоат транспортидаги йўловчилар сони, автомобиль йўлларида эса тирбандлик камаяди. Электр самокат – экологик тоза ҳаракатланиш воситаси. Ундан фойдаланиш арзон, қулай ва осон. Аммо бу борада нафақат мамлакатимизда, балки дунё миқёсида муайян муаммолар ҳам йўқ эмас. Келинг, яхшиси рақамларга мурожаат этайлик.



Кикшеринг (инглизча kick — «оёқ билан тепиш» ва sharing — «биргаликда фойдаланиш») — бу электр самокатларни қисқа муддатга ижарага бериш хизматидир.

Ўтган йилнинг биринчи ярми давомида Қозоғистоннинг Алмати шаҳрида электр самокатлар билан боғлиқ 22 та йўл-транспорт ҳодисаси юз берган. Бунинг оқибатида бир киши ҳаётдан кўз юмган, 23 нафар киши турли даражада тан жароҳати олган.

Италияда сўнги икки йил ичида электр самокатлар иштирокида рўй берган йўл-транспорт ҳодисалари туфайли 17 нафар киши вафот этган. Францияда эса 2022 йилда электр самокатлар 27 нафар кишининг ҳаётига зомин бўлган. Хусусан, Парижда 3 нафар киши ҳаётдан кўз юмган ва 459 нафар киши жароҳатланган. Буюк Британияда 2021 йилда 10 нафар электр самокатчи автоҳалокат оқибатида оламдан ўтган, 331 нафари оғир жароҳат олган. Германияда 2022 йилда электр самокатлар иштирокида жами 442 та кўнгилсиз ҳодиса рўй берган.

Хўш, мамлакатимизда бу борадаги аҳвол қандай? Маълумотларга қараганда, 2022 йил 5 июль куни тахминан соат 01:55 ларда



Тошкент шаҳри Шайхонтохур тумани Қоратош кўчасида бир фуқаро электр самокатда ҳаракатланиб кетаётиб, бошқарувни йўқотиб, ариққа тушиб кетган. У оғир тан жароҳати олиб, касалхонага ётқизилган. Шифокорларнинг муолажаларига қарамай, 11 июль куни вафот этган.

Интернет тармоқлари орқали излаганимда, бошқа бу каби нохуш фактларга дуч келмадим. Лекин хотиржамликка ўрин йўқ. Сабаби, жиддий оқибатларга олиб келмагани боис расман

қайд этилмаган кўнгилсиз ҳолатлар анчагина бўлиши мумкин. Қолаверса, юртимизда электр самокатлардан фойдаланувчилар сони ортиб бормоқда, демакки улар билан боғлиқ кўнгилсизликлар ҳам кўпайиши эҳтимолдан холи эмас. Уларнинг бетартиб ҳаракати, айниқса, пиёдалар учун қатор ноқулайликларни келтириб чиқармоқда. Сабаби, кўпгина электр самокатлар пиёдалар йўлаклари бўйлаб ҳаракатланадилар.

Ўзим пиёдаларнинг бир вакили сифатида шуни ай-

тишим мумкин, пойтахтимиздаги ҳамма пиёдалар йўлакларида ҳам велосипедчилар ва электр самокатчилар учун йўлакча ажратилган деб бўлмайди. Мамлакатимизнинг бошқа шаҳарлари ҳақида гапирмай қўя қолай. Бунинг устига аксар электр самокат ҳайдовчилар ёш болалар бўлгани учун, уларда ҳаракатланиш маданияти етарли даражада эмас. Шу сабабли ўзи орқа томондан келаётгани ҳақида пиёдаларни ўз вақтида сигнал чалиб огоҳлантирмайди.

Шундай экан, ҳозирдан турли кўнгилсизликларнинг олдини олиш чораларини кўриш керак. Авваламбор, электр самокатлардан фойдаланувчиларнинг ёш чегарасини белгилаш лозим. Ушбу ҳаракатланиш воситаларининг тезлигини ҳамда улардан фойдаланиш вақтини ҳам чеклаш тўғри бўларди, деб ўйлайман.

Қолаверса, электр самокатдан бир вақтнинг ўзида икки кишининг фойдаланишига асло йўл қўйиб бўлмайди. Ваҳоланки, шундай ҳолатлар ҳам учраб турибди. Лекин айрим пиёдалар ўз йўлакларини туриб, велосипед ва самокатлар учун мўлжалланган йўлакчалардан юриб, уларнинг ҳаракатига халал бераётганини ҳам инсоф юзасидан тан олишим жоиз.

Шу ўринда халқаро тажрибага мурожаат этсак. Японияда электр самокатда давлат рақами ва ён ойналари бўлиши керак, шунингдек, уларнинг пиёдалар йўлагига ҳаракатланиши ҳам тақиқланган. Буюк Британияда электр самокатдан фойдаланувчида Q тоифали ҳайдовчилик гувоҳномаси бўлиши шарт. Дания, Испания ва Норвегияда уларнинг махсус дубулға кийиши 2022 йилдан минимал техник стандарт сифатида жорий қилинган. Россияда 2023 йилдан электр самокатлардан фойдаланувчиларнинг юк ва бошқа йўловчиларни ташиши тақиқланган.

Бобомурод ТОШЕВ.

Бир жиноят изидан


МИТТИ ШИША БЎЛАГИ

Бу воқеа 1985 йил содир бўлганди. Янгиер шаҳрида яшовчи I гуруҳ ногирони Н. аравачада ҳар куни яқин орадаги ҳовлига қатнайди. Бунинг учун ҳар куни Тошкент–Термиз М-59 халқаро йўлини кесиб ўтади. Шундай кунлардан бирида у автоҳалокатга учради. Натижада у воқеа жойида ҳалок бўлди.

Ички ишлар органлари ходимлари, экспертлар воқеа жойини кўздан кечириш жараёнида арзирли далил топа олишмади. Трасологик таҳлил автотранспорт катта тезликда келганини, шиналарнинг изидан автобус эканини кўрсатди. Бу ҳам тахмин эди, холос. Воқеа жойида тирноқдек келадиған шиша бўлаги топилди. Бир қараганда, аҳамиятсиз бўлак. Лекин ҳар эҳтимолга

қарши олиб қўйишди.

Шундан сўнг шаҳарлараро қатновчи автобуслар текширила бошланди. Уларнинг қатнов графиги ўрганилди. Хўжанд–Тошкент автобусининг Янгиердан ўтадиган вақти билан воқеа содир бўлган пайт мос келди. Эртаси куни автобусни топишди. Ҳайдовчи ҳеч нарсдан беҳабарлигини айтди. Шунда митти шиша бўлаги иш берди. У авто-



буснинг олдинги чироғидан учиб тушгани маълум бўлди. Экспертлар шиша бўлагини кўзга кўринмасдек

синган жойга қўйишганида, ўз жойига мос келди. Ҳайдовчи айбини тан олди.



✓ День памяти и почестей

«БЛАГОДАРНА ЗА СВЕТЛЫЕ ДНИ»

В нашей стране большое внимание уделяется представителям старшего поколения, им оказывается всесторонняя помощь и поддержка. Особая забота проявляется к ветеранам Второй мировой войны и трудового фронта.



Накануне Дня памяти и почестей старший инспектор по вопросам женщин ОПД ОВД № 4 УКД ОВД Янгихаётского района столицы подполковник Рушана Бинали и ее коллеги посетили дома ветеранов.

Вафире Абдукадировой, жительнице МСГ «Ташкент», 97 лет. Во время войны она отправляла овощи солдатам. Сотрудники часто навещают ее, и не только в праздничные дни. Ветеран труда всегда рада гостям, встречает их с улыбкой.

Ибрагимова Танзиля, 1937 года рождения. Ее отец погиб на фронте в 1943-м, мама воспитала детей одна. Дочь Т. Ибрагимовой – Динара Ибрагимовна более 30 лет работает врачом-терапевтом в поликлинике ГУВД города Ташкента.

– Считаю долгом каждого из нас проявлять заботу к ветеранам. Их активному долголетию способствуют и душевное общение, внимание со стороны молодого поколения, – делится подполковник Р. Бинали. – Мы постоянно оказываем поддержку ве-

теранам Второй мировой войны, участникам трудового фронта и приравненным к ним лицам, членам семей военнослужащих и сотрудников правоохранительных органов, погибших при исполнении служебного долга.

Ветераны с теплотой встретили гостей. Они отметили, как важно ценить мир, направлять свои дела и помыслы в благое русло.

– Мы – граждане страны, где делается все, чтобы люди жили в согласии, в атмосфере взаимоуважения. Молодежь воспитывается в духе преданности Родине и народу, – сказала с гордостью Т. Ибрагимовна. – Всегда ощущаем заботу и внимание государства. Разве есть большее счастье, чем жить в стране, где оказывают такие почести старшему поколению? Я благодарна за эти мирные светлые дни.

Соб. корр.

✓ 2023 год – Год заботы о человеке и качественного образования

СТРЕМЛЕНИЕ К ЗНАНИЯМ

Есть на свете место, где кажется, что здесь замирает само время. Это библиотека – храм книг, помогающих найти ответы на многие волнующие вопросы, воспитывающие, прививающие лучшие нравственные качества.

Знакомство с героями данной статьи состоялось в Центре информационных ресурсов (так сейчас называется библиотека) Андижанского академического лицея МВД Республики Узбекистан. Было послеобеденное время. В читальном зале заметил юношей и девушек, склонившихся над изданиями. Захотелось узнать, почему они вместо отдыха после напряженных занятий корпят над книгами.

– Меня зовут Сарвиноз Умарова, – представилась одна из девушек. – Обучаюсь на первом курсе. После окончания лицея планирую поступать в Академию МВД. В будущем хочу работать в сфере обеспечения кибербезопасности. Учусь на одни пятерки. Свободное время стараюсь проводить с пользой, библиотека для этого – лучшее место. Хочу отметить, что в лицее функционируют более тридцати



кружков по интересам. Я углубленно изучаю русский язык.

Следующая собеседница – учащаяся второго курса Орзигуль Юлдашева. Она из Мархаматского района.

– Решение поступать в лицей пришло не сразу, – делится Орзигуль. – Сегодня осознаю, что выбор сделан правильный. Здесь работают опытные преподаватели Нилуфар Косимова, Одина Исроилова, Дилафруз Каримова, Гулмира Бозорова и другие, которые дают глубокие знания по правоведению, истории, родному языку и литературе, английскому языку.

Наврузбек Азимжанов рассказал, что является капитаном команды лицея по боевой подготовке. Недавно команда заняла первое место на соревнованиях, проходивших на базе Академии МВД.

– Готовлюсь к поступлению в Академию, – говорит Наврузбек.

Зикирилло Юлдашев тоже оканчивает выпускной курс и собирается поступать в Академию МВД. Недавно он принимал участие в олимпиаде по правоведению, которая проходила среди учащихся академических лицеев, и занял второе место.

– В лицее изучаем отрасли права, общеобразовательные и специальные дисциплины, – говорит юноша. – Здесь строгая дисциплина. Для иногородних имеется общежитие. Есть возможность заниматься спортом.

Борис КЛЕЙМАН,
корреспондент «На посту».
Фото автора.

Андижанская область.



Сиз кутган учрашув



Ҳақиқий баҳони ХАЛҚ БЕРАДИ

Ўзбекистон халқ артисти, «Меҳнат шухрати» ордени соҳибаси **Одина Ғозиева** саҳифамизнинг бугунги меҳмони.

Театр ва кинода ўзига хос ижролари билан халқимиз меҳрини қозонган санъаткор 1957 йилнинг 5 декабрда Андижон вилоятининг Шаҳрихон туманида санъаткорлар оиласида таваллуд топган.

1980 йили Тошкент театр ва рассомлик санъати институтини тамомлаган. 1975 йилдан буён Муқимий номидаги Ўзбекистон давлат мусиқали театрида ишлайди. Устоз санъаткор ўз ижодий фаолияти давомида театрда сахналаштирилган 50 дан ортиқ спектаклларда бош қахрамонлар ва характерли образларни юксак маҳорат билан ижро этиб, репертуарини бойитиб келмоқда.

БОЛАЛИККА ҚАЙТИБ...

Ҳаёт йўлларимга боқиб шукроналик ҳиссини туяман. Бироқ беғубор туйғулар, азму шижоатли ёшлигимни ҳар дам соғинаман...

Отам Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист Муҳаммаджон Юсупов ғижжак созининг устаси, моҳир созанда, бастакор бўлган. Онам Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими Ширмонхон Ғозиева Шаҳрихонда «Чашма» ансамблини тузиб, ўзбек санъатини дунёга олиб чиққан фидойилардан бири эди. Табиийки, ота-онам куй-қўшиқ, рақс жону дилим эканлигини билиб, илк истеъдод учқунларимни сайқаллаган устозларим бўлган.

Ўн икки ёшимда телевидениеда жонли эфирда «Истеъдод» кўрсатувидида ёш хонанда сифатида Анвар Исроилов сўзи, Шавкат Мирзаев мусиқаси билан «Бахт кошонаси» кўшиғимни куйлаганим кечагидек эсимда. Шундан кейин Ўзбекистон халқ артисти Тилаш Хўжамбердиев раҳбарлигида Дони Зокиров, Тўхтасин Жалилов сингари устозлар яратган кўшиқларни куйлаганман ва улар ҳозирда олтин фонддан жой олган.

Ҳаётимда ҳам, санъат соҳасида ўз ўрнимни топишимда бахтли тасодифлар жуда кўп. Келинг, шулардан бирини эсга олайлик. Ушанда 14–15 ёшда эдим. Шароф Рашидов Шаҳрихонга борганида ёш ижрочилар билан юзма-юз учрашиб, «Чашма» ансамбли дунё кезсин, бу ижодкор ёшларимиз санъатимизни жаҳонга олиб чиқади, мана шу қизимиз учун фильм яратилсин» деган. 1972 йилда Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист Ҳожимурод Иброҳимов режиссёрлигида мен ҳақимда «Санъатга қўйдим қадам» деган телефильм суратга олинган. Шу йили Германияда ўтказилган XXI жаҳон рақс фестивали лауреати бўлганман. Рақсларимни кўрган Ўзбекистон халқ артисти Мукаррама Тўрғунбоева, Қуддусхоним Миркаримовалар жуда катта баҳо бериб, фестивалда қўйилган рақсни 18 та доирада менга мослаб сахналашти-

ришган. Кейинчалик, Молдавия, Болгария, Чехословакия ва Руминияда бўлиб ўтган фестивалларда ҳам иштирок этганман.

САНЪАТИМ – САОДАТИМ

Санъат олийгоҳига қадам қўйганимда озми-кўпми саҳна сирларини тушуниб улгурганим. Раззоқ Ҳамроев, Бахтиёр Ихтиёров, Омон Абдураззоқовдек маҳоратли ва талабчан устозлар қўлида таҳсил олдим. Уларнинг йўл-йўриқ ва маслаҳатлари билан қатор спектаклларда, хусусан, «Лайли ва Мажнун»да Лайли, «Фарҳод ва Ширин»да Ширин, «Гул ва Наврўз»да Гул, «Жон қизлар» Ойсулув, «Тоҳир ва Зухра»да Зухра, «Жайдари келин»да қайнона сингари бош қахрамонларни ўйнадим ва улар халқимиз томонидан илиқ кутиб олинди. Бир сўз билан айтганда, санъатим саодатимга айланди.



ОНА ҚАЛБИ...

Она қалби... Ижрода унинг илдизини топмасангиз, образ ясама бўлиб қолади. Шу жойда бир сирни очаман, мен ўзим яратган оналар қиёфасига бўёқларни ҳамиша онамдан олганман ва ҳозиргача оламан. Она сиймосини яратаман, десам, Аллоҳ раҳмат қилсин, онам елкамда турадилар. Шу боис турли тадбирларда, учрашувларда мухлислар «Сизни онамдек яхши кўраман», дея кучоқ очиб, самимий фикрлар изҳор этишса, кўзларимга ёш келади. Чунки санъатга ҳақиқий баҳони халқ беради. Шундай кезларда онам елкамни кучиб, қулоғим

остида «Қўлингизни кўксингизга қўйиб, раҳмат, денг, қизим» дея шивирлаётгандек бўлади.

«КАМТАРЛИК ТУМОРИ»

Икки акам шифокор, ўқитувчи бўлишимни маслаҳат берган. Мен кўзёш қилиб, отам билан онамнинг йўлидан бораман, деганман. Шунда онам «Биз санъатда ўтдик. Бу касбнинг нони қаттиқ. Ўта оғир томони камтарин, тўғрисўз, меҳнаткаш бўлмасангиз, қийин бўлади. Сизга меҳр қўйган битта мухлисга тескари қараб кетдингизми, барча меҳнатингиз сувга оқиб кетади. Сабр ва бардошли, эътиборли бўлиш, ҳар бир синовга «лаббай» деб жавоб бериш қўлингиздан келармикин?» деганларида иккиланмай, «ҳа», деб жавоб қилганман. Онам «Қизим, унда мен сизга «камтарлик тумори»ни тақдим, шу туморга қараганингизда онамнинг насиҳати, ўгити бўйнимда турибди, деб ҳамиша эслаб юринг» деганлар. Ҳеч иккиланмай айта оламанки, менинг муваффақиятларим сабабчиси меҳрибон онам бўлади. Бироқ битта армоним – онам менинг катта сахналарда роль ижро этганимни кўрмай, оламдан ўтдилар.

ОИЛАДА, ИЖОДДА ҚЎШҚАНОТ ЭДИК

Тақдир йўлларим ҳурматимни жойига қўядиган, санъатимни кадрлайдиган инсон билан туташганидан ниҳоятда мамнунман. Бу ҳам аслида бир сийлов бўлган. Саъдулла Жўраев билан салкам қирқ йил бахтли оила қуриб, олти фарзандни вояга етказдик. Саъдулла ака телевидениеда 38 йил ижод қилиб, «Ассалом, Ўзбекистон» ва «Нима учун?» сингари қатор дастурларни очган, бевосита уларга режиссёрлик қилган. Айниқса, «Нима учун?» кўрсатуви халқимизнинг юрагидан жой эгаллаган, бу лойиҳани ҳозирда «Ёшлар» телеканалда давом эттиряпмиз.

Турмуш ўртоғим билан оилада ҳам, ижодда ҳам қўшқанот эдик. Ўттиз йилдан ортиқ «Оталар сўзи

– ақлнинг кўзи» кўрсатувида бирга ижод қилдик. У киши шогирдларига ниҳоятда талабчан ва меҳрибон эди. «Улар менинг эккан ниҳолларим», дердилар. Бугун шогирдларининг аксарияти санъатимизда ўз ўрнига эга. Улар билан суҳбатлашганда, беихтиёр хотиралар уйғониб, даврамизда Саъдулла аканинг нурли сиймосини кўргандек бўламан.

БОР БЎЛИНГ, ОСОЙИШТАЛИК ПОСБОНЛАРИ!

Ички ишлар органлари ходимлари – тинчлигимиз, осойишталигимиз посбонларига ҳурматим чексиз. Уларнинг шижоатли нигоҳларига боқиб, зиммасидаги масъулият қанчалар залворли эканлигини оналик юрагим билан ҳис этаман.

Менинг икки куёвим ҳам ИИВ Академиясини тамомлаган, ҳозирда шу соҳада фаолият юритади. Ҳар гал уларни хизмат кетбосида кўрганимда тўлқинланиб кетаман. Бугун фарзандларини ҳам ўзларига ўхшатиб тарбия қилишяпти. Набираларимдан «Ватан ҳимоячиси бўламан», деган сўзларни эшитиб, кўзларидаги шахтани кўриб, кўнглимда фахр-ифтихор туйғулари кечади.

ҲАМИША ИЖОДДАМАН

Санъат сеҳри шундай кучлики, унга меҳр қўйган инсонни ҳамиша оҳанрабодек ўзига тортиб туради. Яъни, спектакллар, лойиҳа ва янги ижролар бир-бирини тўлдириб келаверади.

Театримизда «Қайнона» спектаклининг премьерасини ўтказдик. Бу халқимиз юрагидан чуқур жой олган Озарбайжон киноасари. Театримиз режиссёри Достон Ҳақбердиев бошчилигида жамоамиз билан ушбу асарни театр сахнасида қўйишга муваффақ бўлдик. Спектаклда мен мулойим онани ижро этяпман. Кинода бу роль ўйналмаган. Спектаклга бу образ асар бўйича киритилди ва томошабинлар томонидан илиқ қабул қилинди. Ҳар гал мана шундай янги қахрамонларни яратганимда, ич-ичимдан мен ижоддаман, деган садо келади.

«Postda» муҳбири
Гулноза ТУРҒУНБОЕВА
ёзиб олди.



Ajdodlar yodi

XX ASR TO'MARISLARI

yoxud ayol qo'rboshilar

Vatan har bir o'g'il-qiz uchun birdek suyumli onadir. Binobarin, uning tinchlik-osoyishtaligi yo'lida yigitlar bilan bir safda turib xizmat qilgan xotin-qizlar ham talaygina. Bosqinchi Kirning boshini qon to'la meshga tiqqan To'maris, istilochilarga bo'yin egmagan Qurbonjon dodxohlar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix instituti bosh ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori, professor Qahramon Rajabovning «Turkiston qo'rboshilari» nomli kitobidan olingan quyidagi maqolalarni o'qirkansiz, To'marisning izdoshlari yaqin o'tmishimizda ham o'z jasoratlari bilan tarix zarvaraqlariga muhrlanganiga amin bo'lasiz.



NODIRA QIZ

Tarixdan ma'lumki, Turkiston ayollari uchun Vatan ozodligi va uning tinchligi muqaddas hisoblangan. O'lis va yaqin tarixda bosqinchilarga qarshi turkiy ayollarimiz ham necha bor jang maydonlarida ot surganligi, vatanparvar kuchlarga boshchilik qilganligi sir emas. Hatto dushmanga qarshi kurash uchun ayollardan maxsus bo'linmalar tuzilgan. XX asr boshlarida Turkistonda istiqloqlilik harakati saflarida o'zbek va boshqa qondosh turkiy xalqlarning ayollari ham bo'lganligi ma'lum bo'lsa-da, lekin yaqin o'tmishda yaratilgan tarixiy tadqiqotlarda ayol qo'rboshilar xususida hech qanday ma'lumotlar uchramas edi.

Turkistondagi qurolli harakat saflarida Shakarxon qo'rboshi, Muhiddinbekning onasi, Nodira qiz singari ayol qo'rboshilar ham faoliyat ko'rsatgan. Xususan, ular o'rtasida karmanalik Nodira qiz alohida ajralib turadi. Ayol qo'rboshilar haqidagi uzuq-yuluq ma'lumotlar arxiv hujjatlari, zamondoshlarining xotiralari hamda og'zaki tarix ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Nodira qiz – Karmana viloyatida qizil armiyaga qarshi kurashgan ayol qo'rboshi. Nodira qiz Buxoro amirligiga qarashli Karmana bекligidagi Qo'ziboqar qishlog'ida Mulla Rahmatillaboy xonadonida 1904-yili tug'ilgan. Yoshligidan savod chiqarish bilan bir qatorda, chavandozlik va tirandozlik kabi harbiy jang san'ati

usullarini puxta egalladi. Nodira husnda tengsiz qiz bo'lsa ham, taqdir taqozosi bilan turmushga chiqmagan.

1923-yili qizil askarlar Nodiraning qishlog'iga bostirib kirib, uning ikki akasini o'ldirishadi. Nodira bu fojidan keyin ikki yilcha Buxorodagi qo'zg'olonchilar safida bo'lib, bosqinchi qizil armiyaga qarshi janglarda qatnashdi. Karmana va uning atroflarida Nodira qizning dovrug'i tarqalib, u tillardan tushmadi. Yurt qo'ldan ketganligini ko'rgan Mulla Rahmatillaboy 1925-yili o'z oilasini olib, Afg'onistonga jo'nab ketishga majbur bo'lgan. Said Olimxonning o'g'li Sayyid Mansur Olimiy «Buxoro – Turkiston beshigi» nomli asarida guvohlik berishicha, Afg'onistonda Nodirshoh hukmronligi davrida turkistonlik muhojirlarning ahvoli nihoyatda og'irlashgan. Bu paytda Afg'onistonga nisbatan sobiq Ittifoqning tazyiqi ham kuchaygan edi. Qizil armiya jangchilari afg'on harbiylari libosini kiyib, Afg'onistonda bemaol izg'ib yurishgan. Ikki afg'on harbiysi Nodiraning uyiga kirib, ko'z o'ngida ota-onasini o'ldirishadi va uning nomusiga tajovuz qilmoqchi bo'lishadi. Bunday yovuzlikni ko'rgan Nodira har ikki askarni qilich bilan chopib tashlaydi. Nodira o'z atrofida turkistonlik muhojir ayollar va qizlarni to'plab, ulardan maxsus dasta tuzadi. Bu ayollar afg'on ma'murlaridan o'z ozodliklarini Nodira boshchiligida himoya qilishadi. Uning nomi yana Nodira qiz sifatida turkistonlik muhojirlar o'rtasi-

da mashhur bo'ladi. 1930-yili Nodira qiz o'z dastasi bilan Tahor viloyatining markazi Toliqonda turgan Ibrohimbek qo'shiniga kelib qo'shildi. Mashhur lashkarboshi Ibrohimbek Karmananing bu jasur qizi bilan ota-bola tutinadi.

1931-yili Ibrohimbek sobiq Ittifoq hududiga kirganida, uning qo'shini safida Nodira qiz ham bo'lgan. Ayniqsa, Nodira qiz dastasi qizil askarlarga

qishlog'ida yangi hovli solib, shu yerda muqim yashab qolishadi. Ularning uch qiz va bir o'g'li bo'lgan. 1916-yili Otajonboy vafot etib, Shakarxon beva qoladi.

1918-yilning yozida oltiariqlik To'ychi qo'rboshining Toshqo'rg'on qishlog'idagi uyiga qurollangan 30 yigit hamrohligida erkakcha kiyinib olgan Shakarxon kirib keldi. Shakarxonning istiqloqlilik harakatiga qo'shilishi ana shunday boshlandi. Tez orada u 500 yigitdan iborat harbiy dastaga rahbarlik qildi va Shakarxon qo'rboshi sifatida Farg'ona vodiysida mashhur bo'ldi. Uning yigitlari Qayrag'och qishlog'i va atrof hududni qizil askarlardan himoya qilishgan. 1918-yil kuzida Shakarxonning yolg'iz o'g'li Odiljon qo'lga olinib, chekistlar tomonidan otib tashlanadi. Farg'onalik ijodkorlar A. Ibodinov va Y. Eminovning yozishlaricha, 1921-yil oxirida Qayrag'och qishlog'ida qizil askarlar bilan bo'lgan to'qnashuvlarning birida Shakarxon qo'rboshi halok bo'lgan.

Shakarxon qo'rboshining Turg'unoy, Adolat, Lazokat ismli qizlari keyinchalik zamonaviy va o'qimishli ayollar bo'lib yetishdi. Afsuski, sovet rejimi davrida ularning qarindosh-urug'laridan ko'pchiligi qatag'on qilindi. Ulardan tirik qolgan ayrimlari bugungi kunda Oltiariq tumanidagi Poloson qishlog'ida yashashadi.

MUHIDDINBEKNING ONASI

Arxiv manbalarining dalolat berishicha, Farg'ona vodiysidagi istiqloqlilik safida o'zbek va qirg'iz ayollaridan ko'plab qo'rboshilar bo'lgan. Xususan, Shakarxon qo'rboshi va Muhiddinbekning onasi boshchilik qilgan guruhlar qizil askarlar yuragiga g'ulg'ula solgan.

Muhiddinbek qo'rboshi O'sh uyezdi va Oloy vohasida harakat qilgan qirg'iz istiqloqlilik harakatining yetakchisi edi. U ko'p yillar davomida qizil armiyaga qarshi mardonavor kurashdi.

Turkiston Respublikasi GPU qo'shinlari boshlig'iga 1922-yil 9-aprelda yuborilgan «mutlaqo maxfiy» tamg'ali ma'lumotda aytilishicha, Muhiddinbekning onasi (afsuski, birlamchi manbada bu jasur ayolning nomi ko'rsatilmagan) 30–50 nafar qirg'iz ayollaridan iborat harbiy guruhga boshchilik qilib, Farg'ona viloyatida qizil askarlarga qarshi kurashgan. Bu guruh jangchilari jasoratiga hatto dushmanlar ham tan bergan. Muhiddinbekning o'limidan keyin (u 1922-yil 26-sentabrda O'shda inqilobiy harbiy tribunal yig'ilishining hukmi bilan otib o'ldirilgan edi) bu jafokash ona o'g'lidan qolgan harbiy guruhga ham boshchilik qilgan va O'sh uyezdida qizil askarlarga qarshi mardonavor kurashgan.

Afsuski, Muhiddinbek onasining keyingi taqdiri bugungi kunda ham noma'lumligicha qolmoqda.

Temir QURBON
tayyorladi.

DUMBA YO‘G‘I – KONI FOYDA

Qo‘y dumbasi Sharq mamlakatlarida, xususan yurtimizda azaldan insonning umrini uzaytiruvchi, salomatligini mustahkamlovchi, quvvatini oshiruvchi foydali, shifobaxsh oziq-ovqat mahsuloti hisoblangan. Chunki quyruq yog‘ining tarkibi organizmimiz uchun zarur bo‘lgan V, Ye, A, N vitaminlariga, magniy, mis, rux kabi minerallarga, organik kislotalarga va xlor, fosfor, oltingugurt singari bir qator makroelementlarga boy. Undan turli xastaliklarni davolashda ham foydalanishgan.

«Eritilgan dumba yog‘ini qo‘lingiz uchiga olib, tovoningizga ishqalab surting. Massaj qilsangiz ham bo‘ladi. Issiq paypoq kiyib, dam olib o‘tiring. Terlab, badandagi shamollash alomatlari yo‘qoladi. Mabodo, yurak-qon tomir kasalliklari mavjud bo‘lsa, bu muolaja og‘irlik qilishi mumkin. Bu borada shifokor bilan maslahatlashing».

Umuman olganda, dumba yog‘i to‘yimli ozuqa hisoblanadi. Kasallikdan keyin iste‘mol qilinsa, kishi tez quvvatga kiradi. Quyida quyruq yog‘ining yana boshqa bir qator shifobaxsh xususiyatlari haqida to‘xtalamiz.

Ayollar uchun

Dumba yog‘i har qanday yoshdagi ayol uchun foydali. U gormonlar sintezini yaxshilaydi, bepushtlik xavfini kamaytiradi. Ularning yoshligini, umrini uzaytiradi.



Qo‘y yog‘i organizmning qarish jarayonini va ateroskleroz xastaligining rivojini sekinlashtiradi, yurak va miya faoliyatini yaxshilaydi. Homiladorlikda bola a‘zolarining shakllanishiga yordam beradi. Chunki quyruq yog‘i tarkibida homilaning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ko‘plab moddalar mavjud.

Erkaklar uchun

Dumba yog‘i organizmda muhim gormonlarning sintezi uchun zarur. Quyruq yog‘i iste‘mol qilib turadigan



erkaklar jinsiy zaiflikka chalinishmaydi. Ayniqsa, qish faslida uni ko‘proq iste‘mol qilish kerak. Bu yog‘ kishiga quvvat bag‘ishlab, tanani isitadi. Yilning har qanday faslida og‘ir jismoniy mehnatdan yoki mashqdan so‘ng quvvatni tez tiklaydi.



Bolalar uchun

Quyruq yog‘i yosh bolalarga judayam foydali bo‘lib, ularning o‘sishi-



ga, rivojlanishiga yordam beradi. Bola organizmida yog‘ yetishmasa, uning aqliy qobiliyati, xotirasi pasayadi. Bunday bolalar diqqatini jamlay olmaydi.

Xalq tabobatida

Eritilgan dumba yog‘i bronxit, pnevmoniya (zotiljam) va bo‘g‘in og‘riqlarini



davolashda qo‘llaniladi. Chunki uning tarkibida nafaqat vitaminlar, minerallar va yog‘ kislotalari, balki shamollashga qarshi moddalar ham mavjud. Qo‘y yog‘i sil kasalligini davolashda ham yaxshi samara beradi.

Quyruq yog‘ini virusli xastaliklar keng tarqalgan mavsumda ko‘proq iste‘mol qilish kerak. U organizmning bakteriyalarga va viruslarga qarshilik qobiliyatini kuchaytirib, immunitetni mustahkamlaydi. Bundan tashqari, barcha a‘zolarida modda almashinuvini yaxshilaydi.

Shuningdek, ovqat hazm qilish tizimining faoliyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Oshqozonni ortiqcha me‘da shirasidan xalos qiladi. U qabziyatni daf etadi, ichaklarning qayishqoqligini kuchaytiradi. Qo‘y yog‘i oshqozon-ichak yarasi, gastrit kasalliklarining oldini oladi.

Eslatma

Semizlikdan aziyat chekayotgan, kamharakat odamlarga dumba yog‘i iste‘mol qilish tavsiya etilmaydi. Shuningdek, jigari, oshqozon osti, o‘t pufagi xasta, trombozi mavjud odamlar ham shu siraga kiradi.

Bobomurod TOSHEV
tayyorladi.

КОЗЬЕ МОЛОКО: ПОЛЬЗА И ПРОТИВОПОКАЗАНИЯ

Козье молоко богато кальцием, фосфором, кобальтом, железом, витаминами B₁, B₂ и C в естественной, легко усваиваемой форме. Оно полезно для нормализации работы желудочно-кишечного тракта, повышения гемоглобина, улучшения зрения, при диатезе. Только что выдоенное козье молоко обладает бактерицидными свойствами. В нем содержатся биологически активные вещества, которых нет в коровьем молоке.



Польза для детей

Оно не только менее аллергенно, но и обладает массой полезных свойств. Усваивается лучше, чем коровье, исключает возникновение повышенного метеоризма и пищевых расстройств. Содержит альбумин – белок, максимально приближенный к тому, который входит в состав материнского грудного молока.

Тем не менее, педиатры акцентируют внимание на том, что у детей с аллергией на белок коровьего молока в ряде случаев развивается перекрестная аллергия на белки козьего, поэтому вводить его в рацион нужно осторожно.

Есть ли противопоказания?

Как и любой другой пищевой продукт, козье молоко может причинить и вред. В первую очередь речь идет об индивидуальной непереносимости. Этот продукт противопоказан тем, у кого есть заболевания поджелудочной железы и ожирение. В холодном виде он хуже усваивается, что может привести к проблемам с пищеварением.

Не забудьте проконсультироваться с врачом!





Jinoyatga jazo muqarrar



«QARZINGIZNI TO'LANG, ONLAYN KREDIT OLGANSIZ»

Yaqinda Jizzax viloyatining G'alalorol tumanida yashovchi Nargiza Turdiyeva (ism-shariflar o'zgartirildi) ning telefoniga notanish raqamdan qo'ng'iroq bo'ldi:

– Sizni bankdan bezovta qilyapmiz. Bankimizdan onlayn tarzda 15 million so'm miqdorida kredit olgansiz. Ikki oyga yaqin vaqt o'tdi, lekin qarzingizni to'lamaysiz...

– To'xtang, qanaqa kredit? – Nargiza esankirab qoldi. – Adashyapsiz, men hech qanaqa kredit olmaganman. Olmoqchi bo'lganman, lekin berishmagan.

– Bo'lishi mumkin emas, Nargiza Turdiyeva sizmisiz? Shu kuni, shu soatda sizning nomingizga kredit rasmiylashtirilgan. Buni o'zingiz ham onlayn shaklda tasdiqlagansiz...

Nargiza bir necha oy muqaddam bo'lib o'tgan voqealarni ko'z oldiga keltirdi.

...Poytaxtga kelib vaqtincha ishlab yurgan Nargizaga bir tanishining gaplari juda ma'nili tuyuldi. Hozir bankka bormay, telefonning o'zida ko'z ochib-yumguncha kredit olish mumkin ekan. Biror joyda doimiy ishlash ham shart emas emish. Bir-ikki kun bu gaplarga sehlranib, tezda katta pul egasiga aylanib qolishni orzu qilgan Nargiza oxiri shu kreditni olishga qaror qildi. Bu borada tanishining tanishlari unga yordamga keldi. Sergeli tumanidagi «Korzinka» supermarketi oldida uchrashgan Nargiza o'zini Suhrob va Nodir deya tanishtirgan ikki yigitga ishondi-qo'ydi. Ular o'z uyali telefonlaridan bank ilovasi orqali kirib, Nargizaning nomiga onlayn kredit rasmiylashtirishni boshlashdi. Barcha ma'lumotlar kiritildi. O'z telefoniga kelgan tasdiqlash kodlarini Nargiza paydar-pay yigitlarga aytib turdi. Rasmiylashtirish oxiriga yetganda Suhrob Nargizaga yuzlandi:

– Opa, nimagadir so'rovingiz rad etildi. Oldin qandaydir kredit yoki kreditga telefon, televizor olib, pulini vaqtida to'lamaganmisiz?

– Ukam nomimga telefon olgandi, lekin vaqtida to'lagan bo'lishi kerak.

– UZR, opa. Sizga bermayapti...

Shu bilan hamma o'z yo'liga ravona bo'ldi. Nargiza kredit olmaganidan afsuslanib, vaqtinchalik ish joyiga bordi. Tez orada Jizzaxga qaytib ketdi. Oradan ikki oyga yaqin vaqt o'tib esa, bu hangoma chiqib turibdi.

Nargizaning murojaatidan so'ng jinoyat ishi qo'zg'atildi. Onlayn kredit olishda qatnashgan barcha ishtirokchilar ishga jalb etildi. Surishtiruv, tergov harakatlari davomida Suhrob, Nodir va ularning yana bir sherigi o'zaro til biriktirib, jinoyat sodir etgani aniqlandi. Ular Nargizaning soddaligidan foydalangan holda, nomiga onlayn kredit rasmiylashtirib, oxirgi lahzada «Sizga berilmaydigan bo'ldi» deya aldab, bank tomonidan ajratilgan mikroqarzni o'zlari olgani oydinlashdi.

Tergov jarayonida ustomon yigitlarning boshqa kirdikorlari ham fosh bo'ldi. Suhrob jinoyat sheriklari bilan yana ikki fuqaroni ayni shu usulda chuv tushirgan, ularning nomiga onlayn tarzda kredit rasmiylashtirib, olingan mablag'ni o'z ehtiyojlariga sarflab yuborgan ekan.

Sud Suhrob va uning jinoyat sheriklariga nisbatan qilmishlariga yarasha jazo tayinladi.

Xulosa shuki, texnologiyalar jadal rivojlanayotgan, axborot, ma'lumot almashuv o'zining yuqori cho'qqisiga chiqayotgan hozirgi zamonada ehtiyotkorlik, hushyorlik yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Sizga tegishli birgina maxfiy ma'lumotning o'zgarar qo'liga tushib qolishi qanday ayanchli oqibatlariga olib kelishini bugun yon-atrofimizda firibgarlar qurboniga aylanib qolayotganlar misolida ko'rib turibmiz. Shunday ekan, o'zingizga tegishli ma'lumotni begonalariga bermang, ularga o'lja bo'lib qolmang.

Munisa MURODULLAYEVA,
kapitan.

Toshkent shahri.

TOVLAMACHINING SO'NGGI YURISHI

Rishtonlik Ulug'bek Yusupov (ism-shariflar o'zgartirildi) tovlamachilikni o'ziga kasb qilib olganlardan biri. O'tgan yilning noyabr oyi boshida u tanishi Iroda Qosimova bilan jinoiy reja tuzdi. Irodaga videokamera o'rnatilgan maxsus ko'zoynak berib, uni «Vatanparvar» o'quv-sport texnika klubida ishlovchi Anvar ismli shaxsning oldiga yubordi. Ayol u bilan suhbatlashib, 3 million 500 ming so'm evaziga hech qanday imtihonlarsiz haydovchilik guvohnomasini olishga kelishdi va ushbu xizmatlari evaziga Anvarga 300 AQSH dollari va 140 ming so'm berdi. Bu jarayonni o'zida bo'lgan maxsus kamerali ko'zoynak orqali tasvirga tushirdi.



Va'daga muvofiq Anvar Irodaning Oltiariq tumanidagi avtomaktablardan birida o'qigani, nazariy va amaliy imtihonlarni ijobiy topshirgani haqidagi soxta imtihon varaqasi va ta'lim muassasasining guvohnomasini tayyorlab berdi.

Ishni osongina bitirib, barcha holatlarni tasvirga tushirib olgan jinoyat guruh rejaning navbatdagi bosqichiga o'tdi. Anvarni Rishton tumani prokuraturasi binosi yoniga chaqirib, Irodaga qalbaki hujjatlar tayyorlab bergani bo'yicha barcha holatlar videotasvirga olinganligini aytishdi. Ushbu tasvirlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga berish bilan qo'rqitib, ularni oshkor qilmaslik evaziga o'zlari bergan pul – 300 AQSH dollari va 140 ming so'mni talab qilishdi. Noiloj qolgan Anvar ularning yo'rig'iga yurishga majbur bo'ldi.

Ulug'bek bu bilan qanoatlanmay, dekabr oyida Anvarning ish joyiga borib, yana tovlamachilik qildi. Videotasvirni kerakli joyga jo'natish bilan qo'rqitib, keyingi oyning 20 sanasiga qadar 400 AQSH dollari miqdorida pul berishini talab qildi.

Ulug'bek qing'ir ishlarini davom ettirib, endi ichki ishlar organi xodimini «ovlamochi» bo'ldi. Bir tanishi bilan suhbat davomida

u Buvayda tumani hududida xizmat olib borayotgan YPX inspektorining xatti-harakatlarini telefon orqali tasvirga olganidan xabar topib, ushbu videotasvirlarni o'zining telefoni xotirasiga o'tkazib oldi. So'ng inspektorni izlab, ish joyiga bordi. Unga go'yoki tanishidan pora olayotgani aks etgan videotasvirlar borligini, ularni ijtimoiy tarmoqlarga tarqatib yuborishi mumkinligini aytdi. Videotasvirlarni oshkor qilmaslik evaziga 15 ming AQSH dollari miqdorida pul berishini talab qildi.

Nafsi hakalak otgan bu kimsaning qing'ir ishlari shu yerda oxirgi nuqtaga yetib kelgandi. IIV SHXBBning Farg'ona viloyati bo'yicha boshqarmasi hamda Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti xodimlari hamkorligida o'tkazilgan tezkor tadbirda talab qilgan pulning bir qismi – 10 ming AQSH dollarini olgan vaqtida u ashyoviy dalillar bilan ushlendi.

Tovlamachilarning qilmishi tergov jarayonida o'z tasdig'ini topdi. Sud ularga belgilangan jazoni tayinladi.

Jahonbek RUSTAMOV,
podpolkovnik.

Farg'ona viloyati.

IIV rahbariyati, shaxsiy tarkibi va Faxriylar kengashi vazirlik M va MTTD Xo'jalik boshqarmasi yetakchi mutaxassisi

mayor Farhod AKBAROVning

vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur ta'ziya izhor qiladi.



✓ **Фотоинформация**





Начальник УВД Самаркандской области полковник Рахмат Маматов, руководители секторов Ургутского района, военнослужащие и представители общественности посетили дом участника Второй мировой войны Бурона ота Гадоева. Ветерану зачитано поздравление Президента и вручены подарки.

✓ **Рекомендовано к чтению**

«АЛХИМИК» – РОМАН-ПРИТЧА

Пауло Коэльо – бразильский прозаик и поэт. Опубликовал в общей сложности более 20 книг – романы, комментированные антологии, сборники коротких рассказов-притч, стихов, тираж которых свыше 300 миллионов экземпляров.



«Алхимик» – самый известный роман Пауло Коэльо, долго остававшийся в первой десятке бестселлеров. Произведение переведено на 81 язык.

Книга увидела свет в 1988 году и сразу принесла автору всемирную славу. По подсчетам, количество

проданных экземпляров «Алхимика» превышает количество проданных экземпляров любой другой книги, написанной на португальском за всю историю развития этого языка.

Главный герой романа-притчи – пастух Сантьяго. Он живет в Андалусии.

Однажды Сантьяго увидел сон, который манил его отправиться к египетским пирамидам, чтобы найти там сокровище. По совету старика Мельхиседека – царя Салима, Сантьяго продает своих овец и плывет в Африку. Череда приключений в конце концов приводит юношу к Алхимику. Тот учит его, как познать самого себя, Душу Мира. Пройдя все испытания, Сантьяго находит сокровище.

В юности люди не боятся мечтать, все кажется им возможным. Однако наступает время, когда внутренний голос начинает внушать, что желания неосуществимы...

«Добиться воплощения своей Судьбы – вот единственная подлинная обязанность человека...», – утверждает Пауло Коэльо.

ГОРОСКОП НА НЕДЕЛЮ (с 15 по 21 мая)



Овен. Более всего Овнам на этой неделе повезет в делах профессиональных. Проявляя инициативу, можете быть уверены, что руководство вас поддержит, выделит и отметит. Возможно даже повышение в должности. Коллеги будут искать вашего расположения.



Телец. Неотразимое обаяние, искрометный юмор, потрясающий интеллект сделают вас центром внимания в любой компании. Это отличный период для знакомств и возобновления утраченных некогда романтических связей. Однако тем, кто уже состоит в отношениях, стоит быть осторожной перед лицом соблазнов.



Близнецы. На этой неделе будете не очень склонны «гореть» на работе, да и в целом дела, требующие сосредоточенности и ответственности, вряд ли пойдут успешно. Поэтому важные переговоры, крупные покупки лучше отложить. Не исключены недомогания типа легкой простуды или расстройства желудка.



Рак. Раки столкнутся с плохо скрываемой завистью коллег. Некоторым из них не дают покоя ваши достижения. Отнеситесь к этому серьезно: кое-кто из завистников может сейчас сплести интригу, которая способна испортить вам репутацию. Приготовьтесь также к тому, что ряд планов может сорваться из-за проблем с кем-то из близких.



Лев. На этой неделе скучать не придется: многочисленные встречи, новые знакомства, поездки, интересные задания на работе будут следовать друг за другом с такой частотой, что порой вы даже не будете знать, как все успеть. Суждено получить знаки внимания от обаятельного представителя противоположного пола.



Дева. Ни в коем случае не следует уклоняться от общения. Ваш успех в достижении целей сейчас зависит главным образом от того, как много людей вы сумеете привлечь на свою сторону, сделать единомышленниками. Не бойтесь и сами доверять окружающим – риск обмана или подвоха практически исключен. Принимать успешные решения по семейным вопросам не рекомендуется.



Весы. Весам на этой неделе не стоит доверять даже самым лучшим друзьям. Высока вероятность «подставы». Стать на время «одиноким волком» будет полезно и на месте работы. В бытовых делах особых проблем не возникнет. Любимые люди удивят неожиданными романтическими поступками.



Скорпион. В делах будут постоянно возникать заминки и помехи, которых вы совершенно не ожидали. Вероятны также ссоры из-за денег. Как бы ни было трудно, постарайтесь не обременять проблемами окружающих – помощи от них вы сейчас не дождетесь. Семейным полезно обратить внимание на поведение партнера по браку.



Стрелец. Масса дел, большинство из которых окажется рискованными, поджидают вас. Остерегайтесь непорядочных людей, так как желающих облегчить ваш кошелек будет предостаточно. При необходимости проконсультируйтесь с хорошим юристом. Хотя и некоторые из друзей тоже могут дать дельный совет.



Козерог. На работе сейчас вообще лучше сохранять нейтралитет, поскольку возникнут ситуации, в ходе которых легко потерять расположение начальства. В семейных делах будет полезно проявить определенный напор и твердость, иначе кто-то из близких может совершить ошибку.



Водолей. Есть риск, что кто-то из посторонних вовлечет вас в свои заботы и тем самым сорвет ваши планы. Будьте осторожнее в общении с начальством – не злоупотребляйте добрым отношением. В выходные появится возможность сделать удачные покупки с существенными скидками.



Рыбы. Не подходящий период для перемены места работы и переезда на другую жилплощадь. Сейчас лучше чаще оставаться наедине с собой. Тем не менее, многим одиноким Рыбам удастся привлечь интерес к себе со стороны симпатичного представителя противоположного пола.

QADRIYATLARI QADRLANGAN YURT

Dostonchilik va baxshichilik — milliy g'ururimiz. Uning zamiridagi ezgu qadriyatlarni xalqimizga yetkazish lozim.



Yosh avlodni milliy qadriyatlarimizga muhabbat ruhida tarbiyalashda ezgulikka chorlovchi, vatanparvar, adolatli, mard, jasur bo'lishga undovchi dostonlarning va umuman baxshichilik san'atining o'rni behad ulug'.

Prezidentimizning «Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida ta'kidlanganidek, xalqimizning yuksak badiiy dahosi bilan yaratilgan ushbu noyob san'atni asrab-avaylash va

rivojlantirish bo'yicha mamlakatimizda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada yurtimizda «Alpomish» dostonining ming yilligi keng nishonlangani, Termez shahrida bu ulug' badiiy obida sharafiga, Samarqand

shahrida atoqli baxshilari-miz xotirasiga bag'ishlangan yodgorlik majmualari bunyod etilgani, davlatimiz tomonidan «O'zbekiston Respublikasi xalq baxshisi» faxriy unvoni ta'sis qilinganini qayd etish lozim. 2022-yil o'zbek xalqining ko'hna va betakror san'ati namunasi bo'lgan baxshichilik san'ati YUNESKONing Insoniyat nomodiy madaniy merosining reprezentativ ro'yxatiga kiritildi.

6-8-may kunlari Guliston shahrida III Xalqaro baxshichilik san'ati festivali bo'lib o'tdi.

Festivalda dunyoning 40 dan ortiq mamlakatidan musiqachilar, baxshilar, oqin va ijrochilar ishtirok etdi. Xususan, Qozog'is-

Shavkat MIRZIYOYEV

ton, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Rossiya, Turkiya, Vengriya, Koreya, Yaponiya kabi 30 dan ortiq mamlakatlardan ishtirokchi va mehmonlar tashrif buyurishdi.

— Bugun Guliston shahri markazidagi bog' va xiyobonlar, madaniyat maskanlarini aylansangiz, xuddi moziyga sayr etgandek bo'lasiz, — deydi viloyat IIB JTSB PPX xodimi, katta serjant Kamila Reyimbayeva. — Ayniqsa, teatr maydoni, viloyat Alisher Navoiy xiyoboni, amfi-teatr bayramona bezatilgan. Anjumanga tashrif buyurgan ko'p sonli san'atkorlar, xorijlik mehmonlar hamda tomoshabinlarning xavfsizligini ta'minlab, jamoat tartibini saqlashga hissamizni qo'shayotganimizdan xursandmiz.

Festival doirasida baxshichilik va dostonchilik san'atini rivojlantirish, baxshi-shoir, oqin va jirovlar ijodining sharq madaniyati va san'atidagi o'rni hamda ahamiyatiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Xorijiy va O'zbekiston baxshichilik san'ati ustalari ijrosida yakxon konsertlar va dostonchilik kechalari tashkil etildi.

Anjuman yakunida ko'rik-tanlov g'oliblari va sovrindorlarini tantanali taqdirlash marosimi hamda gala-konsert namoyish etildi.

O'z muxbirimiz.
Sirdaryo viloyati.



SPORT

MURODJON YO'LDOSHEV — BRONZA MEDALI SOHIBI

Xabaringiz bor, Qatar poytaxti Doha shahrida dzyudo bo'yicha kattalar o'rtasidagi 36-jahon chempionati start oldi. Ushbu nufuzli musobaqada 99 ta davlatdan jami 657 nafar dzyudochi 14 ta vazn toifasida medallar hamda Parij-2024 Olimpiadasi yo'lidagi qimmatli reyting ochkolari uchun tatamiga chiqadi. Ular orasida O'zbekiston terma jamoasining 18 nafar dzyudochisi ham bor.

Quvonarlisi, yurtimiz vakillaridan IIV huzuridagi JIED THO xodimi, safdor Murodjon Yo'ldoshev 73 kg vazn toifasida bellashib, bronza medali sohibiga aylandi va 1000 ochkoni qo'lga kiritdi. Hamkasbimizni bunday ajoyib g'alaba bilan muborakbod etib, unga kelgusida ham ulkan zafarlar quchishini tilab qolamiz.

Shahrizod SHOKIROV,
katta leytenant.



Postda
Ha noqiy

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir —

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari —

mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar —

Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchilar —

Sherzod ABDUSAMADOV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar —

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar —

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari
bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili:
Alisher Navoiy ko'chasi 30-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Buyurtma №V-5482.
Bosilish — ofset usulida.
Bichimi — A3. Hajmi — 6 bosma taboq. 50797 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda — 180.
Tashkilotlar uchun — 366.
Bosishga topshirish vaqti — 22.00.
Bosishga topshirildi — 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.